

O‘zbekiston respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus kasb xunar ta’limi boshqarmasi
Andijon davlat universiteti
Pedagogika fakulteti Psixologiya kafedrası
Pedagogika –psixologiya ta’lim yo‘nalishi
4-bosqich talabasi
Xalilova Atira Obidinovnaning

BITIRUV MALAKA ISHI

MAVZU: Umumuiy psixologiyaning dolzarb muammolari
(psixologiya o‘qitishga zamonaviy yondashuv)

Imiy raxbar: katta o‘qituvchi YO.YUsupova

ANDIJON-2013

**MAVZU: UMUMIY PSIXOLOGIYANING DOLZARB MUAMMOLARI
(PSIXOLOGIYA O‘QITISHGA ZAMONAVIY YONDASHUV)
REJA.**

KIRISH.

1. BOB. UMUMIY PSIXOLOGIYANING METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Psixologik qarashlarning paydo bo‘lishi va uning xorij psixolog olimlari tomonidan o‘rganilishi.

1.2. Yangi davr va psixologiya

1.3. Buyuk ajdodlarimizning ta’limotlarida o‘qitish va tarbiya kategoriyalarining psixologik xususiyatlarini aks ettirilishi.

**2. BOB. PSIXOLOGIYA FANLARINI O‘QITISHDA TA’LIM METODLARI VA
SHAKLLARINING PSIXOLOGIK TALQINI.**

2.1. Shaxs faoliyatida psixologik bilimlarning ahamiyati.

2.2. Zamonaviy psixologiya tarmoqlari ilmiy amaliy anjumanlar va psixologik xizmat taraqqiyoti.

2.3 Psixologiyaning yaqin oradagi vazifalari

**3. BOB. PSIXOLOGIK BILIMLARNI EGALASHNING AMALIY
AHAMIYATI**

3.1. Talabalarda psixologik tajribalar o‘tkazish ko‘nikmalarini shakllantirish

XULOSA.

TAVSIYA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

ILOVALAR.

M U N D A R I J A

	KIRISH.	4-10
I BOB	UMUMIY PSIXOLOGIYaNING METODOLOGIK ASOSLARI	11
1.1	Psixologik qarashlarning paydo bo'lishi va uning xorij psixolog olimlari tomonidan o'rganilishi.	11-17
1.2	Yangi davr va psixologiya	18-21
1.3.	Buyuk ajdodlarimizning ta'limotlarida o'qitish va tarbiya kategoriyalarining psixologik xususiyatlarini aks ettirilishi.	22-29
II BOB	PSIXOLOGIYA FANLARINI O'QITISHDA TA'LIM METODLARI VA SHAKLLARINING PSIXOLOGIK TALQINI.	30-35
2.1.	Shaxs faoliyatida psixologik bilimlarning ahamiyati.	36-47
2.2	Zamonaviy psixologiya tarmoqlari ilmiy amaliy anjumanlar va psixologik xizmat taraqqiyoti.	48-52
2.3	Psixologiyaning yaqin oradagi vazifalari	53-57
3-BOB.	PSIXOLOGIIK BILIMLARNI EGALASHNING AMALIY AHAMIYATI	58
3.1.	Talabalarda psixologik tajribalar o'tkazish ko'nikmalarini shakllantirish	59-65
	XULOSA.	66-67
	TAVSIYA.	68-69
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.	70-72
	ILOVALAR	73-82

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi.

O'zbekiston respublikasining mustaqillikka erishuvi natijasida jamiyatimizda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichiga o'tildi. Jamiyatning yangilanishi talim sohasida islohotlar qilinishini, o'zgartirishlar kiritishni, yangicha talim berish usullarini, yangicha yondashuvni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan sog'lom mustaqil fikrlovchi, yuksak ahloqli va istedodli shaxsni jahon andozalariga mos ravishda dunyoviy bilimlar bilan ham nazariy, ham amaliy qurollantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Istiklol sharofati bilan respublika xalq ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklarida o'qitish hamda tarbiyalash tizimini yanada takomillashtirishga oid bir qancha qarorlar, nizomlar, qonunlar, konsepsiyalar ishlab chiqildi. Bu xujjatlar mutaxassislarni tayyorlashda ta'lim tizimidagi uyg'unlikni ta'minlashda ham nazariy, ham amaliy dastur vazifasini o'taydi. Respublikada oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda jahon malakatlarining ilg'or g'oyalari, tarbiyaviy, ta'limiy nazariyalari, mutaxassislar tayyorlashning boy amaliyoti xozirgi zamon texnikasi va texnologiyasidan foydalanish, hamda milliy, xududiy xususiyatlarni hisobga olib, ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish, shu negizda yangisini ishlab chiqish va keng ko'lamda qo'llash bosh omil sanaladi. Bugungi islohotlar davri o'qitishning samarali metodlarni yaratishning, ta'lim tizimida o'zaro hamkorlik ishlarini takomillashtirishni, shaxsni shakllantirishda ta'lim-tarbiyani yetakchiligini ta'minlashni, shaxsni yosh xususiyatlarini, milliy xususiyatlarini e'tiborga olib tarbiyaviy ta'limiy tadbirlarni amalga oshirishni taqozo qiladi. Oliy o'quv yurtlarimizdagi o'quv jarayonlarini tashkil etishda zamonaviy texnologiya va sharqona tarbiya usullaridan, ta'limni takomillashtirishda kompyuter vositalari, elektron vositalardan foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir, toki bu jarayon o'zida milliy rux xukmronlik qilinishi bilan boshqa mamlakatlardan ajralib turmog'i lozim.

Respublikamizdagi yuz berayotgan tub o'zgarishlar barcha fanlar qatori psixologik bilimlardan mutaxassislar tayyorlashda unumli foydalanish zaruriyligini ko'rsatmokda. Davlat tomonidan ishlab chiqilgan «Ta'lim to'g'risidagi qonun», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» singari xujjatlarni amaliyotga tadbiiq etish uchun bo'lg'usi mutaxassislarni davr talabiga mos tayyorlash muammosini kun tartibiga kiritmokda. Xudi shu bois psixolog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish uchun mutaxassislarni psixologiya bo'yicha bilimlar bilan qurollantirish ijtimoiy zarurat bo'lib hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, psixologiya fanlarni o'qitish metodikasi murakkab o'quv predmetlari qatoriga kirib, keng ko'lamdagi ma'lumot umumlashmasini hamda sintetik akliy faoliyat majmuasini o'zida mujassamlashtiradi.

Shaxsning barkamolligi ko'p jihatdan uning aqliy rivojlanishi va ma'naviy jihatdan shakllanganlik darajasiga bog'lik bo'ladi. Bu jarayonni o'rganish bevosita psixologiya fanlarini asosiy predmetlaridan biridir.

Bugungi kunda inson muammosi aniq va gumanitar fanlarning umumiy tadqiqot ob'ektiga aylanib bormoqdaki, be'vosita psixologiya fani bu borada nazariy va amaliy ta'limotlarning inson ruxiy kechinmalarini o'rganishda zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanilmoqda. Ushbu ma'noda bizning ilmiy tadqiqotimiz chuqur amaliy tajribalarga asoslangan "**Umumiy psixologiyaning dolzarb muammolari**"ni ilmiy asoslarini yoritishga qaratilgan.

Hozirgi zamon psixologiyasini o'rganishdagi muammolarni xal qilishda jahon psixologiya yo'nalishida olib borilgan tadqiqotlarni taxlil qilish asosida yosh mutaxassislariga psixologiya o'qitish usullarini, psixologik sifat va miqdoriy taxlil qilishning zamonaviy usullari haqida to'laqonli bilim berish maqsadga muvofiqdir.

Shu o'rinda Psixologiya sohasini takomillashtirishda quyidagi jihatlarni asosiy omil sifatida ta'lim jarayonida e'tibor berish maqsadga muvofikdir deb xisoblamoq shartdir

- * Psixologiyada xozirgi zamon metodologiyasidan kelib chikkan xolda ta'limni takomillashtirishning zamonaviy modulini joriy etish.

- * Shaxsga yondashish xozirgi zamon talqiniga asoslangan holda kamolot to'g'risida mulohazalar yuritish

- * Inson shaxsini shakllantirish to'g'risidagi ilmiy psixologik omillar tizimini inobatga olgan holda nazariy umumlashmalarga asoslanish va ularni kompyuterlashgan tizim orqali talabalar ongiga singdirish,

- * Psixologiya prinsiplarini xozirgi zamon talqiniga binoan kompyuterlashtirilgan ta'limni o'quv mashg'ulotlarida jori etish va keng tushuntirish.

- * Taraqqiyotdan ilgarilab ketish fenomenal xodisasini o'qitish jarayonida diqqat markazida tutish, shuningdek ta'lim taraqqiyotni emas, balki taraqqiyot ta'limni o'z ketidan yetaklashga alohida etibor qilish.

- * Mustakil fikrlash, o'z-o'zini kashf etish, o'zini o'zi namoyon qilish singari gumanistik g'oyalarga sadoqatlilik kabi xususiyatlar yetakchi omil ekanligini unutmaslik.

Mavzuning ishlanganlik darajasi. Umumiy psixologiyaning dolzarb muammolari bugungi kunda barcha sohaga kirib borayotganligi bilan e'tibordadair. Shu o'rinda umumiy psixologiyaning dolzarbliigi va bu sohaga ta'luqli o'z yechimini kutayotgan masalalar bo'yicha qator jahon va o'zbek psixologlarining tadqiqot ishlari olib borayotganligini ta'kidlab o'tish joizdir. Ushbu muammo sobiq sovet psixologlaridan A.B.Petrovskiy, B.B.Davidov, L.S.Vigotskiy, A.T.Luriya, V.Ya.Laudis, B.S.Badmaev kabilarning ilmiy amaliyot tadqiqotlarida o'rganilgandir. Ularning ayrimlarini ta'kidlash psixologik bilimlarning qay darajada ahamiyatli

ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Jumladan: umumpsixologik bilimlarga ega bo'lish shahs aqliy taraqqiyotida va o'z-o'zini anglashda muhimligini ta'kidlagan P.Ya.Galperin. N.N. Tallizinalarning izlanishlari bugungi kunda psixologiya fanlarini o'qitishda katta xizmat qilmoqda, Shuningdek psixologiya tarmoqlarini o'rganish va uni faoliyat jarayonidagi o'rnini D.B.Elkonin, V.V.Davidov, N.F.Tallizina, A.M.Matyushkina, T.V.Kudryavsev, L.N.Landa V.Ya.Lyadus, Ye.N.Kabanova-Meller, A.Verbitskiy, Z.I.Kal'mikova. E.G'.G'oziev, M.G.Davletshin, M.V.Voxidov, V.Karimova, B.Qodirov, G'.Shoumarov, Z.Nishonova va boshqalar turli ilmiy asoslar yordamida ko'rsatib o'tganlar.

Umumiy psixologiyani dolzarb muammolari zamonaviy fan tizimida yechimlarini tadqiq etish, qiyosiy tavsif qilinmagan metodlarni tadqiq etish orqali ularning samaradorligini ochib berish izlanishimizning bosh g'oyasi bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. Umumiy psixologiyani dolzarb muammolarini o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishning muhim mezon sifatidagi ahamiyati, o'rnini, ilmiy asoslarini tadqiq etish, zamonaviy texnologiyalarning afzalliklarini tahlil qilish, nazariy va amaliy ma'lumotlarni taqqoslash va umumlashtirishdan iborat.

Vazifalari.

1. Nazariy va empirik psixologik materiallarni tahlil qilish va umumlashtirish.
2. Tadqiqot o'tkazish uchun eksperimental materiallar yig'ish va erkin fikrlash malakalarini rivojlantirish hamda ularni ob'ektlarga va sub'ektlarga muvofiqlashtirish.
3. Turli xususiyatlarga ega bo'lgan psixologik tajribalarni o'tkazish va ularni sifat jihatidan tahlil hamda talqin etish.
4. Ta'lim sohasida psixologiya fanlarining o'rnini va salohiyatini amaliy tajribalar asosida o'rganish va uning ahamiyatli tomonlarini yoritish umulashtirish,
5. Psixologiyani turli sohadagi ta'sir darajasi, psixoprofilaktik va psixodiagnostik, psixologik maslahat larni o'ziga hos xarakterlarini aniqlash, avfzalliklarini yoritish.
6. Umumiy psixologiyani diferensial xususiyatlarini faollashtiruvchi, rivojlantiruvchi maxsus mashg'ulotlar yordamida o'rganish va taxlil qilish.
7. Amaliy tajribalar tashkil etish jarayonida talabalarni psixologik bilimlar bilan qurollantirish, mavjud bilimlarni mustaxkamlash, tadqiqot muammosini yoritish.

Tadqiqot ob'ekti Zamonaviy fan tizimida umumiy psixologiyani dolzarb muammolari va uni o'qitishni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari jarayoni

Tadqiqot predmeti: Umumiy psixologiyani o'qitishni takomillashtirish jarayonini nazariy va amaliy tadqiq etish, va psixologik qonuniyatlar asosida o'rganish va unga ta'sir etuvchi hamkorlik imkoniyatlarining determinatsiyalaridir

Tadqiqotning metodologik asosi. Jahon psixologiyasidagi ilg'or konsepsiyalar,

yondashuvlar, ilmiy psixologik prinsiplar, qonunlar, qonuniyatlar, mexanizmlar; zamonaviy pedagogik psixologik texnologiyalar negizi; buyuk ajdodlarimizning ilmiy ta'limotlari: Prezident I. A. Karimovning asarlaridagi g'oyalar, O'zbekiston respublikasining davlat xujjatlari, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va boshqa xujjatlar.

Tadqiqot metodlari.

Ta'lim jarayonida talabalar va o'qituvchilar faoliyatini kuzatish. oliy maktab talabalari va o'qituvchilari bilan suhbatlashish, psixologiya fanlarini o'qitishni ta'limni takomillashtirishga yo'naltirilgan eksperiment ishlarini o'tkazish, kuzatish, IPS, talabalarning bilim darajasidagi o'zgarishlarni diagnostik tahlil qilish maqsadida testlardan foydalanish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

1) Mavzuga ta'luqli birlamchi manbaalar tahlil qilinganligi hamda umumlashtirilganligi. Eksperiment o'tkazish uchun original materiallar to'planganligi hamda izlanish ob'ektlariga va sub'ektlariga muvofiqlashtirilganligi.

2) Psixologik bilimlarning zaruriyligi va uni ilmiyligini ta'minlanganligi, fanni o'qitishni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, mexanizmlarining dalillab berilganligi.

3) O'qitishning faol va innavatsion metodlari yordamida psixologik bilimlarni bayon qilinganligi va ularning samaradorligini ko'rsatkichlari isbotlanganligi.

4) Talabalarda umupsihologik biliimlarga bo'lgan qiziqishning o'sganligi, hamkorlik imkoniyatlarining ro'yobga chiqarilganligi.

5) Psixologiya o'qitishda fanlararo ierarxik prinsiplar va qonunlarga asoslanishi ta'lim samaradorligini oshirish omili ekanligi talqin qilinganligi.

6) Tajribalarda talabalarda o'ziga xoslik, yosh davr xususiyatlari va tafovutlari ishonchli mezonlar asosida ko'rsatib o'tilganligi.

Tadqiqot farazlari.

Oliy ta'lim tizimida uning sub'ektlari (o'qituvchi, talaba va talabalararo) o'rtasida oqilona hamkorlikni vujudga keltirish o'qitish jarayonida umumiy psixologiyani o'qitishni takomillashtirishni va samaradorligini oshirish zaruriyligi asoslash mumkin

Fan texnika taraqqiyotining so'ngi usullaridan unumli foydalanish psixologiya o'qitishni takomillashtirishning asosiy omili bo'lishi mumkin.

- Psixologik bilimlarga to'la ega bo'lish orqali talabalarda voqea hodisalarni psixologik tahlil qilish, psixologik xizmat va psixologik maslahat berish malakalari shakllatirishning yangi qirralarini yaratish mumkin.

- Talabalarning psixologiya fanlaridan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'zlashtirishda mavjud imkoniyatlarni adekvat baxolash va, mustaqqil ilmiy manbaalar bilan ishlash

ko'nikmalari oshadi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati.

1.Olingan natijalar umumiy psixologiyaning dolzarb masalalarini yechimini topish imkoniyatini beradi.Umumiy psixologiyani ta'lim tizimidagi ahamiyati, psixologik bilimlarning kasbiy faoliyatdagi o'rni yuzasidan tavsiyalarning berildishi. Ta'lim jarayonida sub'ekt-sub'ekt munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlariga oid ilmiy materiallar bilan psixologiya sohalarini boyitilishi

2. Bugungi kunning asosiy zamonaviy fanlaridan xisoblanayotgan psixologiya faniga e'tiborni oshirish, psixologiya fanining o'ziga xos ahamiyatli tomonlarini ochib berish.

3.Ta'lim sohasidagi olib borilayotgan islohotlar asosida psixologiya sohasida ham yangiliklar kashf etish imkoniyatlarini yaratish.

4.Psichologiya o'qitishning zamonaviy usullarini yaratish va uni amalda qo'llash ishlarini tashkil etishda ko'llashlari mumkin.

Ilmiy tadqiqotning amaliy ahamiyati.

Tadqiqot xulosa va tavsiyalaridan umumiy psichologiya fanini o'qitishda, mashg'ulotlarni tashkil etishda barcha soha mutaxassisarlari va mutaxassis o'qituvchilar faoliyatida foydalanishlari mumkin. Psichologik bilimlarni o'rgatishda innavatsion texnologiyalarning afzalliklarini ochib berish va ta'limda joriy etish uchun amaliy tajribalar tashkil etishda foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malaka ishining strukturasi va hajmi.

Bitiruv malaka ishi 3 bob 7 bo'lim xulosa, tavsiya, faoydalanilgan adabiyotlar va alovalardan iborat.

1. BOB. UMUMIY PSIXOLOGIYA'NING METODOLOGIK ASOSLARI

1.1. Psixologik qarashlarning paydo bo'lishi va uning xorij psixolog olimlari tomonidan o'rganilishi.

“Psixologiya o'zining muammolarini hayotdan olishi kerak,
u oddiylikdan murakkablikka qarab borishi kerak”-

Fress.

Psixologiya fan sifatida jahonning barcha mamlakatlarining o'quv yurtlarida (meditsina, pedagogika va boshqa oliy o'quv yurtlarida, kasb xunar kollejlari va ayrim davlatlarning maktab ta'limidagi yuqori sinflarida AQSh) o'qitiladi. Xorijiy mamlakatlarda Garvard Kolumbiya, Stanford (A.Q.Sh), Kembridj, Oksford, London (Buyuk Britaniya), Mokreol (Kanada), Parij (Fransiya), Berlin (G.D.R), Praga (Chexoslovakiya) Vorshava (Pol'sha) universitetlari psixologiya ta'limining mashxur markazlaridir. Psixologiya sohasidagi qarashlar o'z navbatida ma'lum bir ta'limotni ilgari surishga asos bo'lgan. Jumladan psixologiya fanida gumanistik g'oyalarni tadqiqot qilish ishlari chet-ellarda, asosan, AQSh da «Gumanistik psixologiya» deb nomlangan mustaqil sohada, ilmiy yo'nalishda Sh.Byuler, (aqliy tarakkiyot) A.Maslou (extiyojlar, yuksak xislar, ierarxiya), (K.Rodgier o'z-o'zini anglash va takomillashtirish), R.Olport (psixik rivojlanish) kabilarning asarlarida o'z ifodasini topgan edi. Mazkur yo'nalish namoyondalarining ta'limotlarida shaxsning o'zini-o'zi takomillashtirish, o'zini-o'zi faollashtirish, o'zligini anglash, o'z ichki imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish g'oyalari aks etgan bo'lib, insonlarda adolat tuyg'usi, vijdonlilik, insonparvarlik, maslak, go'zallik va xaqqoniylik xislarini shakllantirishga qaratilgandir. Bu bilan ular psixologiya fani rivojlanishida ma'lum tushunchalarni asoslashga yordam berganlar. Lekin ularning e'tibordan chetda qolgan zamonaviylikni biz o'z tadqiqotimizning mag'ziga aylantirishga xarakat qildik.

Gumanistik psixologiya sohasining muxim tomonlaridan yana biri – bu shaxsning muhim jihatlaridan passiv inson sifatida tadqiqot ob'ekti singari tasavvur etmasdan, balki uning hamkorlik faoliyati, shaxslararo munosabatning teng xuquqli a'zosi ekanligini tan olinganlikdan iboratdir. Lekin bu ta'limotning zaif tomonlari ham mavjud bo'lib, u narsa insonning biopsixologik shart-sharoitlarning o'rniga ortiqcha baho berganligida namoyon bo'ladi. Vaxolanki, inson ijtimoiy munosabatlar mahsuli, ijtimoiy muhit bo'lib hisoblanadi. Shunga qaramasdan, xozirgi davrda ham gumanistik psixologiya'ning ilg'or g'oyalari, tizimi, tadqiqot uslublari o'z dolzarbligini saqlab qolgandir. Gumanistik psixologiya namoyondalari to'plangan natijalarini milliy psixologiya, ijtimoiy garmonal, muayyan muxit, xududiy xususiyatlardan kelib chiqqan xolda taxlil qilish orqali oliy maktab ta'lim-tarbiyasida gumanistik g'oyalarni singdirish imkoniyatini yaratadi. Barcha sohada kabi psixologiya fanlarini o'qitish muammolarining ayrim tomonlari bir qator jahon psixologlari tomonidan tadqiq etilgan, va izlanishlari asosida ma'lum bir

usullarni yaratganlar. Ularning olib borgan izlanishlari bugungi psixologiya fanlarini o'qitishda asosiy vositalardan xisoblangan. Chet el olimlarining olib borgan izlanishlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani emas. Lekin nazariy taxlillar shuni ko'rsatadiki psixologiya o'qitishni takomillashtirish muammolari yuzasidan deyarli kam ish qilingan **Jumladan Amerika psixologi A.Adler.** (1936. internet ma'lumotlari) o'tgan asrning boshlaridanoq o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari xaqida o'z karashlarini ifoda etgan va bu boradagi ilmiy izlanishlari asosida ta'limning rivojlantirish usullarini ko'rsatib bergan olimlardan hioblanadi.

Alfred Adlarning "Individual psixologiya"da psixologiya o'qitishda prezintatsiyalarning (ko'rsatmalilikni, namoyish etish,) ahamiyati katta ekanligini ko'rsatib beradi. Uning fikrini to'ldirish maqsadida biz bugungi ta'lim tizimidagi didaktik mashg'ulot o'tish usullarini keltirishimiz mumkin. Shuningdek Adlarning fikrlariga qo'shimcha qilib shuni ta'kidlash joizki, ta'limni takomillashtirishda talabalarga vizual ta'sirning kuchi aloxida ahamiyat kasb etadi. Biz buni o'z tajribalarimizda yana bir bor ishonch xosil qildik. Ayni kompter vositalari yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlarda talabalar kurish, eshitish bilan birga vizual ta'sir orqali ham bilimlarni o'zlashtiradilar. Bu esa Adlarning kursatmalilik prinsipini asoslasada uning asosiy kamchiligi talabalarining mustaqil ishlarini bajarishdagi faolligini chetda qolishidir..

Amerikalik psixolog Z.Ekman (1993) esa o'z asarlarida psixologiya o'qitishda xissiy ta'sir etish, talabalarining qo'zg'atuvchilarga javob reaksiyalari muxim ekanligini ta'kidlaydi (internet ma'lumotlari. Psyclojist .394-392). Albatta o'qitishda talabalarining xissiy emotsional xolatlari ham ahamiyatga ega, chunki ta'sirlanish jarayoni bilimlarni kabul qilishda o'ziga xos xarakterni kasb etadi. Biznigcha mashg'ulotlarni tashkil etishda talabalarni individual psixologik xolatlarini ham xisobga olinishi bejis emas. Yani talaba mashg'ulotni o'zlashtirishda o'z xissiyotini boshkarishi, ortiqcha emotsiyalarga berilmasligi hamda o'z-o'zini boshkarishi, o'z faoliyatini adekvat baxolashga o'rganishi maqsadga muvofiqdir. Shundagina talaba bilimlarni adekvat o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek ayrim fanlarni o'qitishda talabalarining qo'zg'atuvchilarga ta'sirini o'rgangan xolda olib borilishi ularning xissiy irodaviy sifatlarini shakllantirish va mustaxkamlanishiga yordam beradi. Bu esa talabalarda ilmiy manbaalarni o'zlashtirish va unga moslashgan xolda ko'nikma va malakalar shakllanishiga shart sharoitlar mavjudligini anglatadi. Buning natijasida ta'lim samaradorligiga erishiladi.

Psixologik bilimlarni egallashda ta'limni tashkil etish va uning samarali usullaridan foydalish imkoniyatlarini kengaytirishda shaxsning yosh davrlarini hisobga olish muhimligi ma'lum. Buni biz amerikalik psixolog D.Yelkindning (1968) asarlarida ilgari surgan g'oyalaridan bilim olishimiz mumkin. Uning fikricha psixologik bilimlarga egallashda ta'limni tashkil etish va uni samaradorligini oshirishda shaxsning yosh davrlarini hisobga olish o'qitishni takomillashtirish omillaridan biri xisoblanadi. (internet ma'lumotlari; "Yosh davrlarda aqliy rivojlanish",

Yetuklikni anglash – 2-nashri Boston Allyn&Bacon 332-336). Albatta bugungi ta'lim tizimida psixologiya fanlarini o'qitishni takomillashtirish uchun shaxsning yosh davrlarini ijtimoiy psixologik xususiyatlaridan kelib chikib olib borish muximdir. Chunki har bir yosh davri o'qitishning ma'lum bir etaplarini o'z ichiga oladi. Shunga kura o'qitish ham oddiydan murakkabga qarab tashkil etiladi. Biznigcha Djon Yelkind fikrlarini rivojlantirib bugungi islohotlar asosida o'qitishning zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etishda ham bolalarni yosh davrlari va individual psixologik xususiyatlarini e'tiborga olgan xolda tashkil etish maqsadga muvofikdir.

E.X Erikson. (1964) o'z asrlarida fanni rivojlantirish va uning ilmiy tadqiqotlarini takomillashtirishdagi fikrlari ta'limda ayniqsa shaxs psixologiyasi borasida tushunchalarni talabalar ongiga singdirishda xissiyot va javobgarlikni muximligini ta'kidlagan. (internet ma'lumotlari; *Insig, and responsibility*. New York. Norton).

P.G Geen..(1991) Ijtimoiy ong va ijtimoiy omillar ta'siri shaxsning aqliy rivojlanishida u.yoki bu jarayonni aks ettirish omili sifatida ifodalanadi. Ta'limni tashkil etish samarasi ijtimoiy muxit va shaxsning ijtimoiylashuviga bog'likligi xakidagi fikrlarni bildiradi.Ularning fanlarni o'zlashtirishi ijtimoiy motivlar mazmuni ni asosi ekanligi isbotlashga xarakat qiladi.(Ijtimoiy motivatsiya). (internet ma'lumotlari www.psicollog.ru Social motivation. Renewal .Review of Psychology.42.377-399).

Amerika psixologlari Xari Mastin va Marklar shaxs aqliy rivojlanishining asosiy mohiyati postmodernizatsiya ta'limoti orqali tushuntirishga xarakat qiladilar. (internet ma'lumotlari "The meaningof difference: Gender theory postmodernizm? and psaycolojy Hare.- Mustin.R.T.& Marecer.L. 1988 American psycolojist. 455-466). Ta'limni takomillashtirish asosan psixologiya yo'nalishida barcha psixologik tushunchalarni mohiyatini ochib berishning turli tuman xossalari va usullari xaqida Kobasa.S.C.(1987 internet ma'lumotlari) ko'rgazmalilik, Kraus.S.L. (1995) xissiy barkarorlik, Lazarus.R.S. (1994 internet ma'lumotlari) ijtimoiy ta'sirlanuvchanlik Le Doux.L.E. (91,92.93 internet ma'lumotlari) ehtiyojlar Moslov.A.H.(1970 internet ma'lumotlari) kabilar ilg'or g'oyalarni ilgari surganlar.Ularning fikr va g'oyalari bugungi kunda ham psixologiya fanlarini o'qitishda amaliy samarasini berib kelmoqda. Ularnig olib borgan izlanishlari va ilgari surgan g'oyalari o'rganilib va taxlil qilingan xolda biz o'qitishning bugungi kun talabalari asosidagi zamonaviy texnologiyalar yordamidagi takomillashtirish omillarini aniqladik.

Gumanistik psixologiya va boshqalarning ilmiy-metodologik, ilmiy-nazariy, emperik – amaliy jixatidan nuqson qidirmasdan, balki eng oqilona tomonlarini amaliyotga tadbiq qilish tavsiyanomasini ishlab chiqish orqali o'qitishni takomillashtirish imkoniyatlariga ega bo'lishimiz mumkin. Ana shu jarayonlardagina tabiatga va jamiyatga munosabatni shaxs bilan, favqulotdagi

vaziyat bilan uzviy bog‘lab o‘rganish imkoniyati yaratiladi. Ushbu muammolarni xal qilishda biosfera va neosferadan kelib chiqish joiz. Nazariy muammolarni amaliy turmush bilan aloqasini oqilona tushuntirish va yaqqol namuna keltirish orqali ularni taxlil qilish asosida ahamiyatini yanada jonlantiradi, insoniy fazilat, xislat va sifatlardan andoza olishga talabani yetaklaydi. Ta’limni samaradorligini oshirish imkoniyatlari yaratiladi.

Xozirgi davrda inson muammosi aniq va gumanitar fanlarning umumiy tadqiqot ob’ektiga aylanib bormoqdaki, be’vosita psixologiya fani bu borada nazariy va amaliy ta’limotlarning inson ruxiy kechinmalarini o‘rganishda zamonaviy tadqiqot usullaridan foydalanilmoqda. Shu nuqtaiy nazardan ilmiy ishni tadqiq etishda chuqur amaliy tajribalarga asoslangan psixologiyaumuiy psixologiyaning dolzarb muammolari va psixologiya o‘qitishni takomillashtirishning o‘ziga xosligini nazariy va amaliy tadqiq etish bilan birga ilmiy yangi tomonlariga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiq. Ma’lumki, ta’lim mazmunini liberallashtirish, uni tubdan isloh qilishda xorijiy mamlakatlar tajribasidan unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega. O‘quv-tarbiya jarayonini isloh qilish sohasidagi qadamlar o‘quv fanlari bo‘yicha yaratilgan konsepsiya va davlat ta’lim standartlarida ham ma’lum darajada o‘z ifodasini topdi .

Sobiq sovet tomonidan psixologlari psixologiyani o‘qitish va uni takomillashtirishning ta’limdagi roli yuzasidan ta’limni takomillashtirish muammolari borasida A.B.Petrovskiy, B.B.Davidov, L.S.Vigotskiy, A.T.Luriya, V.Ya.Laudis, B.S.Badmaevlar tomonidan keng tadqiqot ishlari olib borilgan. Ular psixologiya o‘qitishda ko‘rsatmalilik, noan’anaviy mashg‘ulot tiplarini alohida ahamiyatga ega ekanligini o‘z tadqiqotlarida asoslab berganlar. Ayniqsa M.G Yarashevskiy (Psixologiya XX veka 1974, Nauchniy problemi v razvitiya psixologii 1972, Istoriya psixologii 2-e izd.1976) psixologiya fanining taraqqiyoti muammolari xaqidagi fikrlari, L.S.Vigotskiyning Shaxs psixologiyasi muammolari haqidagi asarlarida ifoda etgan g‘oyalarini bugungi psixologiya o‘qitishda foydalanish bilan birga ularni takomillashtirish maqsadga muvofiq ekanligi e’tirof etmoq kerak.

Psixologiyaning ilmiy bilish va amaliy ahamiyati shundan ham ko‘rinadiki, psixologiyaning tarixiy taraqqiyotida unda bir qancha mahsus tarmoqlar ajralib chiqdi. Psixologiyaning bu tarmoqlari hozirgi vaqtda mustaqil fanlar darajasiga ko‘tarildi. Psixologiyaning shu tarmoqlaridan bir qismi ko‘proq nazariy xarakterda bo‘lsa, ikkinchisi ko‘proq amaliy xarakterdadir. Psixologiyaning ayrim tarmoqlari shulardan iborat; umumiy psixologiya, yosh psixologiyasi (jumladan, bolalar psixologiyasi), pedagogik psixologiya, mehnat psixologiyasi, harbiy psixologiya, san’at psixologiyasi, sport psixologiyasi, sud psixologiyasi, meditsina psixologiyasi, psixopotologiya. Bu fanlardan har birining o‘ziga alohida tekshirish ob’ekti, o‘z vazifalari bor va har biri o‘zining tekshirish metodlaridan foydalanadi. Shu o‘rinda biz psixologiya sohasini rivojlanish davrlariga ham bir nazar solmoqchimz, maqsadimiz tarixga yondashib zamonaviy

psixologiyani vazifalarini aniqlash va takomillashtirishdir. Yangi psixologiya uchun kurashga boshchilik qilgan professor Kornilov, garchand xatolarga yo'l qo'ygan bo'lsa ham, uning tarixiy xizmatlari shundan iborat ediki, bixevioristlar va refleksologlarning avjiga chiqqan siqig'i ostida kurash olib bordi va psixologiya fanining mustaqilligini himoya qilib qola oldi. Munozaralarning eng muhim yakuni haqiqatan ham ilmiy psixologiyani yaratish vazifasi edi. Munozaralar shu narsani ko'rsatdiki, buning uchun, birinchidan, sobiq sovet metodologik merosini, psixologiya sohasiga bevosita dahldor bo'lgan ta'limotini puxta o'rganish va egallab olmoqlari kerak edi, ikkinchidan, psixologlar psixologiya sohasidagi barcha tarixiy meros va yutuqlarni o'rganish bilan shug'ullanishlari va bu yutuqlarni tanqidiy o'zlashtirib olishlari kerak edi va uchinchidan, o'tmishda erishilgan yutuqlarga asoslanib turib, ilmiy psixologiya muammolarini ishlab chiqishni ilgari surmoqlari kerak edi.

Psixologiyaning metodologik va asosiy muammolari bo'yicha asarlar yozildi, bir qancha burjua psixologiyasi nazariyalari tanqidiy ravishda yoritildi. Qator eksperimental ishlar qilinib, ularda psixik jarayonlar sifat jihatidan o'ziga xos hodisalar deb tushunildi, ular organizmning reflekslari va reaksiyalariga tenglashtirib qo'yilmadi. Ikkita o'quv qo'llanmasi munozaralardan keyin psixologiyaning qayta ko'rilganligini ko'rsatuvchi yaqqol dalil edi. Bulardan birini professor Kornilov («Psixologiya» 1-nashri 1934 va 2-nashri 1935 yillarda) ikkinchisini esa professor S. L. Rubinshteyn («Osnovy obshey psixologii» 1935 yil) tuzgan edilar. Bu asarlarda psixologiya masalalari munozaralargacha bo'lgandan boshqacharoq talqin qilindi. Xususan, professor Kornilov bu kitobida psixologiya predmetini tushunishni keskin o'zgartirdi, ayrim psixik jarayonlar esa endi organizm reaksiyalarining kombinatsiyasi deb talqin qilinmaydi. Bu psixologiyada emotsiyalar, iroda va xarakter psixologiyasiga ham o'rin beriladi. Psixologiya fani psixologik faktlarni o'rganib, ularni ilmiy jixatdan taxlil qilar ekan, psixologik faktlarni va xolatlarni kelib chiqish qonuniyatlarini ham o'rganishi va izoxlab berishi lozim. Chunki xar bir sodir bo'layotgan psixik xodisa o'zining genezisi va rivojlanish qonuniyatlariga ega. Ammo qonuniyatlarni va qonuniyatli aloqalarni bilishning o'zi kifoya qilmaydi. Psixologiya fanining yana bir vazifasi - psixik faoliyatning mexanizmlarini aniqlashdan iborat. Demak, psixologiya fan sifatida psixikaning faktlarini, qonuniyatlarini va mexanizmlarini o'rganadi desak to'g'ri bo'ladi. Xozirgi vaqtda psixologiya o'zi o'rganadigan aloxida predmetiga, o'zining aloxida vazifalariga, o'zining maxsus tadqiqot metodlariga egadir; uning psixologik muassasalar tarmog'i (institutlari, labororiyalari, psixolog kadrlarni tayyorlovchi o'quv yurtlari), ixtisoslashtirilgan kitob nashiriyotlari mavjud. Psixik faoliyat mexanizmlari u yoki bu psixik jarayonni amalga oshiradigan konkret anatomik-fiziologik apparatlarning ishlashini taqazo qilgani uchun ham psixologiya bu mexanizmlarning tabiati va xarakatini boshqa fanlar (fiziologiya, biofizika, bioximiya, kibernetika va boshqalar) bilan birgalikda ochib beradi. Xozirgi zamon psixologiyasining asosiy muammolarini

tadqiq qilishda buyuk tabiatshunos Ch.Darvinning g'oyalari juda muxim ahamiyatga ega. Bu g'oyalar jonli mavjudotlarning muxitning o'zgaruvchan sharoitlariga, psixik faoliyatning oliy formalari quyi, ancha sodda formalardan kelib chiqqanligini anglab yetish imkonini berdi.

1.2. Yangi davr va psixologiya

Har qaysimiz kundalik hayotda odamlar bilan uchrashib, ular bilan gaplashamiz, gapga hayajon bilan yoki xotirjamlik bilan javob beramiz, bir xil odamlar bizga yoqimli bo'ladi, boshqalari uncha yoqimli bo'lmaydi. Biz biror faktni, biror voqea yoki xodisani bilib olar ekanmiz: o'ylab ko'ramiz, ko'ngildan kechiramiz yoki unga beparvo qaraymiz, ya'ni bir xil narsa bizni qiziqtiradi, boshqasiga esa e'tibor bermaymiz. Odamning nomunosib xulq-atvorini ko'rar ekanmiz, achchiqlanamiz va g'azablanamiz, uni tanqid qilamiz, fidokorona ishga ko'rsatilgan mehribonlik bizni quvontiradi. Mehnat qilar ekanmiz, sabot bilan ruhlanib, belgilab qo'yilgan rejalarning amalga oshirilishiga erishamiz, lekin ba'zan g'ayrat ko'rsatmay sustlik bilan ishlaymiz. Xilma-xil narsalarni ko'rar ekanmiz, ularni ko'zdan kechiramiz, ular bizga yoqadi yoki yoqmaydi, bir xil narsani esda tutamiz, boshqasini esa unutib yuboramiz, bir xil narsaga diqqat qilamiz, boshqa bir narsani payqamay qolamiz. Yaxshi kitob, yoqimli kuy, rassomlik san'atining go'zal asari har qaysimizga rohat bog'ishlaydi. Bularning hammasiga va ko'pdan-ko'p boshqa narsalar psixik hayotimizning, ya'ni ruhiy dunyomiz (ruhiyatimiz)ning xilma-xil namoyon bo'lishidir. Shuning uchun ham, psixologiya bizning o'zimiz haqidagi, bizning ichki ruhiy dunyomiz xaqidagi fandir.

Psixologiya psixik protsesslarni: - sezgilar, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, iroda, xayol, xislarni va shaxsning temperament, xarakter, qobiliyat, ehtiyojlar kabi xossalarini o'rganadi, shuningdek psixologiya fani odam faoliyatining xususiyatlarini (malakalari, odatlari, mehnati va ijodiy faoliyati va shunga o'xshashlarni) o'rganadi. Boshqacha qilib aytganda psixologiya shaxsga xos bo'lgan barcha xilma-xil individual xususiyatlarni hamda barcha odamlarga xos bo'lgan umumiy psixik sifatlarni o'rganadi.

Odamning psixik hayoti murakkab va ko'p qirralidir: u faqat tashqi muhitning ta'sirlarigagina bog'liq bo'lib qolmay, balki yuksak nerv faoliyatining, miya ishining murakkab nerv-fiziologik qonuniyatlariga ham bo'ysunadi.

Psixologiya fani biosferik ta'limotdan kelib chiqqan holda psixika yuksak darajada tashkil topgan materiyaning xususiyatini aks ettiruvchi kategoriya sifatida o'rganilib kelinganligi manbalarda qayd qilinadi. Biosferaga kirib kelayotgan moddalarning o'zaro birikuvi, muayyan fazoviy maydonni hosil qilishi, to'planishi inson tana a'zolariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, natijada favquloddagi holatlar sodir bo'lishi, kashfiyotlar yuz berishi, intuitiv (lot. «intueri» - sinchkovlik, ichki sezgirlik) shakldagi ruhiy holatlarning kuchayishi namoyon bo'lishi mumkin ekan. Ularga telepatik (yunon. «telepathos» - uzoqni sezaman) samaralar, o'ta sezgirlik, ekstrasenzitivlik (lot. «extrasensus» - o'ta sezgirlik), ekstrasenslik (lot. «extra» - o'ta, «sensus» - his qilaman) kabi psixologik holatlarning kechishi sabablari kiritiladi. Shuningdek, omadsizlik, kasalning intizor kutishi, nasib etmaslik, ishqiy kechinmalar, tushda ayon bo'lish kabi ruhiy holatlar, hodisalar

hanuzgacha ishonchli dalillar bilan tushuntirib berilmagan bo'lsada, biroq bu borada bilish ob'ekti (narsa va hodisa) bilan sub'ekti(inson)ning birikuvida psixologiyaning qulay imkoniyatga ega ekanligini ta'kidlanadi. Masalan, inson dunyo yuzini ko'rishi bilanoq, uning idrokida uni qurshab turgan narsa va hodisalar hamda atrofidagi kishilar muhiti aks eta boshlaydi. Dastavval ob'ektiv (tashqi) va sub'ektiv (ichki, odamlar o'rtasidagi) muhitga moslashish sodda instinktlar (lot. «instinctus» -tabiiy qo'zg'atuvchi, tug'ma xususiyat), shartsiz reflekslar (lot. «reflexus» - aks ettirish) yordamida oddiy ta'sirlanish va taassurot tarzida namoyon bo'lib, bu davrda u o'zligini tushunib anglay olmaydi. Bola bir yoshgacha davrda tez sur'atlar bilan rivojlanadi, natijada ko'rish, ushlash, yurish, talpinish, g'azablanish va quvonish, samimiylik va beg'uborlik singari insoniy tuyg'ulari hamda nutq faoliyati paydo bo'ladi. Bu bosqichni .S.Kon «Men»ning kashf etilishi deb ataydi va bu davrni uzoq davom etadigan shakllanish jarayonining natijasi deb hisoblaydi.

Psixikaning tarkibiy qismlari bo'lmish faoliyat, xulq, muomala yaqqol namoyon bo'lish xususiyatiga ega bo'lsa, bilish jarayonlari, psixik holatlar, ichki kechinmalar, ijodiy rejalar, ilmiy farazlar esa miyada mujassamlashgani uchun ular ko'zga ko'rinmaydi. Psixologiya fanining keyingi davrdagi taraqqiyoti ular o'rtasida bir talay tafovutlarni keltirib chiqardi.

Psixologik bilimdonlikning murakkabligi aynan shundaki, atrofimizdagi narsalar va xodisalarning mohiyatini bevosita his qilib bilishimiz mumkin, lekin psixik hayotga aloqador bo'lgan jarayonlarni, o'zimizda, miyamiz, ongimizda ro'y berayotgan narsalarning mohiyatini bilvosita bilamiz. Masalan, o'rtoqlarimizdan biri bizga yoqadi, doimo bizda yaxshi, ijobiy taassurot qoldira oladi, lekin uning u yoki bu xatti — xarakatlarini bevosita ko'rib, baholab, tahlil qilolsak-da, unga nisbatan his qilayotgan mehrimizni, uzoq ko'rishmay qolganimizda uni sog'inayotganligimiz bilan bog'liq hisni bevosita ko'rib, idrok qilish imkoniyatiga ega emasmiz. Aynan shunga o'xshash xolatlar psixologiya o'rganadigan xodisalar va xolatlarining o'ziga xos tabiati va murakkabligidan darak beradi va ularni boshqa turli xodisalardan farq qiladi. Shunday qilib, psixologiya fani o'rganadigan jarayonlar va xodisalar murakkab va xilma-xil. Ularni o'rganishning ikki jihati bor:

- bir tomondan, ularni o'rganish qiyin,
- ikkinchi tomondan oson ham.

Oxirgi jihati xususida shuni aytish mumkinki, bu xodisalar bevosita bizning o'zimizda berilgan, ularni uzoqdan qidirish, mavhum analogiyalar qilish shart emas, boshqa tomondan, ular o'zaro bir-birlari bilan bog'liq va umumiy qonuniyatlar va prinsiplarga bo'ysunadi. 1-jadvalda psixik jarayonlarning namoyon bo'lish shakllari, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar aks ettirilgan.

Demak, qisqa qilib, psixologiyaning predmeti konkret shaxs, uning jamiyatdagi xulq-atvori va turli faoliyatlarining o'ziga xos tomonlaridir, deb ta'riflash mumkin. Psixologiya konkret fan sifatida psixik faoliyat qonuniyatlarini, uning ro'y berishi mexanizmlari va omillarini o'rganuvchi fandır.

PSIXIKANING NAMOYON BO‘LISH SHAKLLARI VA ULARNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI		
Psixik jarayonlar	Psixologik xolatlar	SHaxsning xususiyatlari
bilish jarayoni	xissiy-irodaviy	individuallik
Sezgilar	Emotsiyalar	yo‘nalishlar
Idrok	E’tiqodlilik	temperament
Xotira	bardamlik	xarakter
Tafakkur	tetiklik	qobiliyatlar
Xayol	apatiya	iqtidor
Nutq	qiziquvchanlik	aqliy salohiyat
Diqqat	hayratlanish	xulq motivatsiyasi
	ishonchlilik	ish uslubi
	ijodiy ruhlanish	mas’uliyat

1.3. Buyuk ajdodlarimizning ta'limotlarida o'qitish va tarbiya kategoriyalarining psixologik xususiyatlarini aks ettirilishi.

Har bir ijtimoiy tuzumda insonning ma'naviy yuksalishini ta'minlovchi ta'lim-tarbiya, ma'naviyat va ma'rifat kabi tushunchalar mavjud bo'lib, ular pedagogik psixologik fanlaridagi o'zgarishlarni jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda atroflicha o'rganishni taqozo etadi. Ushbu fanlarni o'zlashtirish – ma'naviy, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayotning harakatlantiruvchi kuchi bo'lmish inson kamoloti, uning ruxiy rivojlanishi haqidagi g'oyalarni nihoyatda puxta bilishni talab etadi. Psixologiya fanini o'rganish bilan birga jamiyati taraqqiyoti yo'lidagi ta'lim tarbiya pillapoyalarining tajribalariga suyanan holda har bir o'rganuvchida pedagogik madaniyat va mahoratni, didaktik va tarixiy asarlarni tahlil qilish va ularga munosabat bildirish kabi malakalarini shakllantiradi. Eng kadimgi VII asrgacha bo'lgan davrda o'qituvchi, ustoz shogird o'qituvchi-tarbiyachi faoliyati, mahorati, ularning jamiyatdagi o'rni, haqida to'xtalib o'tish lozim. Ibtidoiy jamoa tuzimi davrida jamiyat yosh jihatdan 3 guruhga bo'linar edi.

1. Bolalar va o'smirlar
2. Hayot mehnatining to'la qimmatli va to'la huquqli ishtirokchilari
3. Keksalar

Yangi tug'ilgan bolani jamoadagi keksa kishilar boqib o'stirardilar. Bola tegishli biologik yoshga to'lib, mehnat qilishni o'rganib, hayotiy bilim va malakalarni egallagandan so'ng to'la mehnatchilar guruhiga o'tadi. Ibtidoiy jamoada bola o'zining hayot faoliyati jarayonida kattalarning ishlarida qatnashib ular bilan kundalik muomalada bo'lib tarbiyalanar va ta'lim olar edi. O'g'il bolalar katta yoshdagi erkaklar bilan, qizlar esa ayollarning ishlarida qatnashardilar. Keyinchalik o'g'il bolalar uchun alohida, qizlar uchun alohida tarbiya muassasalari-yoshlar uylari paydo bo'ldi. Bu yerda urug' oqsoqollari rahbarligida yashash mehnat bo'yicha o'tkaziladigan sinovlarga tayyorlanar edilar.

Ibtidoiy jamiyatda dehqonchilik, turli kasb-hunarlar paydo bo'ldi. Shu bilan bog'liq ravishda tarbiya ham murakkablashib, ko'p tomonlama va rejali bo'la bordi. Bolalar tarbiyasi tajribali kishilarga topshiriladigan bo'ldi. Ular bolalarga mehnat ko'nikma va malakalarini o'rgatish bilan bir katorda paydo bo'lib kelayotgan diniy urf odatlarni qoidalar, naqlari bilan bolalarni tanishtirar, yozishga o'rgatar edilar.

Tadqiqotimizda sharq mutafakkirlarining faoliyati xususida o'zimizning fikr-mulohazalarimizni bildirib o'tmoqchimiz. Xalqimizning buyuk mutafakkirlari bo'lmish Imom al-Buxoriy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshbandiy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Bobur, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Botu, Mahmudxo'ja Behbudiy va boshqa shu kabi ko'plab buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviyat sarchashmalari o'zining tarbiyaviy ahamiyatga, ma'rifatni targ'ib etish xususiyatlariga

va ibratlilik xususiyatlariga ega ekanligi tufayli hozirgi kunga qadar o'z qadr-qimmatini yo'qotmay kelmoqda. Bular jumlasiga Navoiyning mashhur "Hamsa" sini, Imom al-Buxoriyning "As-sahih" hadislar to'plamini, Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" kabi ko'plab yuksak qadr-qimmatga ega asarlarni kiritishimiz mumkin. Xalqimiz tomonidan yaratilgan qadriyatlar va urf-odatlar hamda xalq og'zaki ijodi namunalari bevosita xalqimiz ruhiyati asosida shakllangan bo'lib, ular ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashda eng muhim ahamiyatga egadir. Ushbu qadriyatlar o'z navbatida yuqorida sanab o'tilgan buyuk mutafakkirlarimizni ham tarbiyalab voyaga yetkazgandir. Shunday ekan biz buyuk xalqimiz tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlarimiz bilan har qancha faxrlansak arziydi. Bizning burchimiz bunday qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni izchil ravishda takomillashtirib borishdir.

Ma'lumki, xalqimizning salkam ming yillik tarixi Islom dini bilan chambarchas bog'langandir. Shuning uchun xalqimiz tomonidan yaratilgan milliy qadriyatlarning aksariyati, mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviyat sarchashmalari aynan ana shu din asosida shakllanib, rivoj topib kelgan.

Shunday ekan, biz bu dinning urf-odatlariga oqilona yondashib, ularni to'g'ri anglab olishga harakat qilishimiz kerak. Chunki, islom dini yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, doimo millatlar o'rtasidagi tinchlik-totuvlikni va isoniyatga nisbatan qilinadigan har qanday zo'ravonlikka qarshi g'oyalarni targ'ib etib kelgan.

O'zbekistonda didaktik ta'limning tashkil topishi va rivojlanishi Abdulla Avloniy, Hamza Xakimzoda Niyoziy, Muhammadrasul Rasuliy, Qori Niyoziy kabi pedagog va boshqa psixolog olimlarning nomlari bilan bog'liq. Shunday qilib didaktika tamoyillari asrlar osha sayqal topib bordi. Albatta didaktika tamoyillari har bir davrning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini hisobga olgan holda o'zgarib boradi. Chunki ta'lim tamoyillari jamiyat va davlat oldida turgan ulkan vazifalar asosida belgilanadi. Ta'lim (o'qitish) jarayoni murakkab hamda ko'p qirralidir. Unda pedagog va talabalar faol ishtirok etadilar. Bu jarayonning muvaffaqiyatli va samarali natijasi ta'lim jarayonining qonun qoidalari ya'ni ta'limga quyilgan didaktik talablarga qay darajada amal qilishlariga bog'liq. Inson vujudga kelibdiki, o'z farzandiga bilganlarini o'rgatish, o'zi ega bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarini keyingi avlodga o'tkazish dastavval anglanmagan holda bo'lsada mavjud edi. Bu yashash uchun kurash qonunidan kelib chiqib, yashashning zaruriy sharti hisoblangan. Jamiyat rivojlanar ekan avloddan-avlodga o'tkazish lozim bo'lgan bilimlar hajmi ortib bordi. Bilimlar, egallash lozim bo'lgan malaka va ko'nikmalar murakkablashib bordi. Bu jarayon olimlar tomonidan tahlil qilinib asta-sekin ma'lum qoidalar ishlab chiqildi

Sharqning barcha gumanistlari Rudakiy, Firdavsiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Nizomiy, Xofiz, Shayx Sa'diy, Umar Xayyom, Abduraxmon Jomiy, Alisher Navoiy kishilarni ma'naviy go'zalligini, tengsizligini kuyladilar, ezuvchi guruhlarni

tartibga chakirdilar, odil podsholar to'g'risida orzu qildilar, insonparvarlik g'oyalarini olga surdilar. Ular yashab o'tgan davr ijtimoiy va siyosiy ziddiyatlar avj olgan, tashqi dushmanlar hujumi tez-tez takrorlanib turgan, ideologik hayotda soxta targ'ibot ildiz otgan xalq erksiz qashshoq holda yashagan, kitob va yozma manbaalar faqat qo'lda ko'chirib yozilgan davr edi.

Ana shunday-ziddiyatli zamonda yashab o'z maqsadi, hayotini olga surgan vazifalarni bajarishga kirishgan allomalar fan, madaniyat, tarix, ilmiy bilimlar sohasida munosib o'rin egallay oldilar.

Mutafakkirlar mustaqil dunyoqarash, sabr-matонат bilan o'tmish avlodlar bilimlarini chuqur o'rganib, o'zlari ham mehnat qilib turli fanlarda yangi tushuncha va xulosalar chiqara oldilar. Insoniyat tarixi, madaniyat fani o'zaro aloqadorligida o'sib rivojlanib, boyib borishini isbotladilar. Ayniqsa pedagogika, psixologiya, etika fanlarining mustaqilligiga keng yo'l ochdilar. Ta'lim-tarbiya, muloqot odob-ahloq, gumanizm, estetika, tushunchalarini ancha boyitdilar. O'zbek xalqi tarixan ta'lim-tarbiya sohasida o'ziga xos dorilfunun yaratgan. Hatto hozirgi o'zbek xalqi yashab turgan zaminda zardushtiylik dini keng yoyilgan davrda ham pedagogik mafkura hukm surgan. Bu zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto» ning bizgacha yetib kelgan ayrim sahifalarida o'z ifodasini topgan.

Istiqlolga erishganimizga qadar biz tarbiya ishlarimizga Ovrupa usullarini asos qilib oldik va o'rgandik. Endigi vazifa Sharqona ta'lim usullarini davlat ta'lim standartlari asosida o'rganishga e'tiborni qaratmoq lozim. Chunki ilmu fan avval Sharqda taraqqiy etgan, hur fikrlilik bizdan boshlangan. «Sharq Yevropaning muallimidir» deganda haq edi olim Xerler. Haqiqatan ham shunday, o'zbek xalqining madaniy merosi ulkan bir dengiz. Darhaqiqat, milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish lozim. Chunki biror millat o'z qadriyatini boshqa millat qadriyatlaridan ajratib olib yarata olmaydi. Har bir millat ma'naviyatida o'ziga xos tomonlar bo'lsa ham, u umuminsoniy qadriyatlarning bir qismidir. Shu bilan birga unutmasligimiz kerakki, biz qurayotgan yangi jamiyat «binosi» uchun birinchi galda milliy qadriyatlar ustun bo'lmog'i lozim. Biz, eng avvalo, milliy o'zligimizni anglamog'imiz, o'z tafakkurimizni kashf etmog'imiz lozim. O'tmishimizda unutilgan shunday ulkan sarchashmalar borki, ularni puxta va atoroflicha o'rganmoq birinchi galdagi vazifadir.

Istiqlol sharofati tufayli ta'lim sohasida fanlarni takomillashtirish ishlari jadal sur'atda taraqqiy etib bormoqda. Ota-bobolarimiz azal-azaldan bola tarbiyasiga uning ilmi bo'lishiga alohida e'tibor qaratganlar. «Bola boshdan» naqli so'zimizga dalil. Al-Buxoriy, At-Termiziy, Beruniy, Az-Zamaxshariy, Navoiy, Bobur, Ogahiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon singari ulug' olimu adiblar, fozilu fuzalolalar ta'lim-tarbiya borasida ko'p asarlar bitganlar. Ular ta'limdagi milliy xususiyatlarga diqqat-e'tiborini qaratishgan. Istiqlolga erishilganiga qadar ularning pand-nasihatlari, o'gitlari yetarli darajada o'rganilmadi. O'tmishdagi

progressiv pedagoglar va atoqli mutafakkirlarning muhim fikrlari bugungi kunda shaxs tafakkurning o'sishiga, pedagoglik madaniyatining ortishiga imkon beradi.

Sharq uyg'onish davrida ilm-fan, madaniyatning rivojlanishi davrida Al-Xorazmiy va al-Farg'oniyni ilmiy me'rosi va ularning didaktik qarashlarini, Al-Farobiyning ijtimoiy-pedagogik qarashlari va uning ilmiy pedagogik merosidan foydalanishni, Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi va uning pedagogika fani taraqqiyotidagi o'rni, Abu Ali ibn Sinoning umumpedagogik hamda didaktik g'oyalari mazmunini. Xalifa Xorun ar-Rashid va uning o'g'li Ma'mun davrida Bog'dodda "Baytul-hikma" ni (donishmandlar uyi, hozir akademiya ma'nosida) tashkil topishi kabi muxim tarixiy manbaalarni o'rganish ta'lim tarbiya sohaida juda ko'p muammolar yechimiga yo'l topish imkoniyatlarini ochib beradi.

Forobiyni fikr yuritish, tafakkur xususiyatlari haqidagi fikrlari., Abu Ali ibn Sinoning psixologik qarashlari, Fikrlash jarayonini ta'minlovchi operatsiyalar klassifikatsiyalanishi, Mustaqil fikrlash – sog'lom ma'naviyat va tafakkurning alohida xossasi sifatida talqin etilishi, shuningdek. tafakkur xususidagi qarashlari fanning rivojlanishiga o'z xissasini qo'shib kelmoqda. Aqliy xarakterlarning boskichma-boskich shakllanishi ta'limoti o'qitish tamoillarini izchil amal qilishiga imkoniyat yaratadi.

Inson vujudga kelibdiki, o'z farzandiga bilganlarini o'rgatish, o'zi ega bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalarini keyingi avlodga o'tkazish dastavval anglanmagan holda bo'lsada mavjud edi. Bu yashash uchun kurash qonuniyatidan kelib chiqib, yashashning zaruriy sharti hisoblangan. Jamiyat rivojlanar ekan avloddan-avlodga o'tkazish lozim bo'lgan bilimlar hajmi ortib bordi. Bilimlar, egallash lozim bo'lgan malaka va ko'nikmalar murakkablashib bordi. Bu jarayon olimlar tomonidan tahlil qilinib asta-sekin ma'lum qoidalar ishlab chiqildi.

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048) ta'lim jarayonini chuqur o'rgangan olimlardan biri. Abu Rayhon Beruniyning qarashlari progressiv mazmun kasb etadi, Mutafakkirning gumanistik qarashlarida rostgo'ylik bilan adolat himmatga ega bo'lgan sifatlardir. Olim hulqlarni yaxshi va yomon hulqlar deb 2 qutbga bo'lib ko'rsatadi. Uning fikricha yaxshi hulqlar-rostgo'ylik, adolat, mardlik, botirlik, himmat va shu kabilardir. Bu haqida u shunday deydi: hammaning tabiatida adolat bevosita sevimli va hamma uning yaxshiligiga qiziqadigan bo'lgani kabi rostgo'ylik ham shunday; lekin rostgo'ylikning shirinligini tatimagan yoki shirinligini bilsa ham, totishni istamaydigan kishi uni sevmaydi:

Abu Rayhon Beruniy O'rta Osiyo xalqining mashhur qomuschi olimi, o'zining ilmiy mulohazalari bilan barchani hayratda qoldirgan, filosofiya, tarix, filologiya, pedagogika, tabiatshunoslik fanlarining aktual masalalari sohasida o'z davrigacha bo'lgan bilimlarni umumlashtirdi, kamchiliklarni tuzatdi va keyingi avlodlar ham faxrlanadigan asarlar qoldira oldi. Real hayotda u faqat fan, ma'rifatga berilgan odam bo'lgan butun vaqtini kuch-quvvatini ilm

fanga bag'ishlagan ijtimoiy va tabiiy fanlarning eng muhim sohalarida barakali ishladi va shunday asarlar yaratdiki, ular jahon fani va madaniyatini yanada yuqori nog'onara ko'tarishda xizmati katta bo'ladi.

Beruniy yangi mavzularni qiziqarli, asosan ko'rgazmali bayon etish samarali natijalar berishini ham ta'kidlaydi.

Sharq mutafakkirlari va allomalarning ijodiy meroslarida o'qituvchi-tarbiyachi mahorati, ustozlik-shogirdlik shartlariga ham alohida o'rin berilgan. Abu Nasr Farobiy X asr sharq falsafiy fikrlarining eng yirik namoyondalaridan bo'lib, hayot inson haqidagi ta'limotni dastlab yaratuvchilardan biri sanaladi. O'rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman Yaqin va o'rta Sharq mamlakatlarida taraqqiyparvar ijtimoiy, falsafiy tafakkur tarkkiyoti uning nomi bilan bog'liq. Farobiy o'z zamonasi ilmini barcha sohasini mukammal egallagan uning asarlarida odam shaxsining eng yaxshi va oliyjanob xususiyatlari, kishilar hayotida adolat o'rnatilishi, yaxshilik, aqliy kamolotiga erishuvchi inson haqida falsafiy fikrlar ifoda etilgan,

Abu Nasr Farobiy ustoz o'qituvchiga shunday talab qo'yadi: "Ustoz shogirdidriga katta zulm ham haddan tashqari ko'ngilchanglik ham qilmaslik lozim."

Chunki ortiqcha zulm shogirdga ustozga nisbatan nafrat uyg'otadi-yu, ustoz juda ham yumshoq bo'lsa shogird uni mensimay qo'yadi va u beradigan bilimdan sovib ham qoladi. U o'qituvchiga bolalarning fe'l atvoriga qarab tarbiya jarayonida "qattiq" yoki "yumshoq" usullardan foydalanishni maslahat beradi. Uning fikricha:

1. Tarbiyalanuvchilar o'qish-o'rganishga moyillik bildirsalar, ularga ta'lim tarbiya jarayonida yumshoq usul qo'llaniladi.
2. Tarbiyalanuvchilar o'zboshimcha itoatsiz bo'lsalar, qattiq usul (majburlov) qo'llaniladi.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037) bilim olishda shaxslarni ukuv muassasasida o'qitish zarurligini qayd etar ekan, ta'limda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini ta'kidlaydi:

- talaba bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
- o'qitishda jamoa bo'lib, ukuv muassasasida o'qitishga e'tibor berish;
- bilim berishda talabalarning maylini, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o'qitishni jismoniy mashklar bilan qayshib olib borish.

Ushbu ishlab chiqilgan qoidalar ta'limda mustahkam o'rin egallay boshladi.

Abu Ali ibn Sino jahon madaniyatiga katta hissa qo'shgan mashhur ensiklopedist olim, tabiatshunos, faylasuf, astranom, matematik, musiqashunos, huquqshunos, filolog, yozuvchi va shoir. Yevropada Avitsenna nomi bilan mashhur bo'lgan Ibn Sino jahon fani taraqqiyoti tarixida muhim rol o'ynaydi. Ibn Sinoning gumanistik ta'limida birinchi masala inson kamolotidir, insonni olamdagi mavjudodlardan yuqori qo'yishdir. Abu Ali ibn Sinoning ijodiy faoliyati juda xilma-xil va rang barangdir. Uning asarlarida falsafa, tarix, filologiya, etika, pedagogika,

psixologiya, she'riyat, tabobat, terapiya, xirurgiya, diagnostika, gigiena va tabiatshunoslik fanlarining har qaysisiga doir mustaqil fikrlar va xulosalar bor. Ibn Sino buyuk olim. U insonning aqlining har tomonlama rivojlanishiga tabiat sirlari va haqiqatni bilish mumkinligiga qattiq ishongan. Isbotlab misollar keltirgan. U o'zining ilm-fan sohasidagi katta fazilatlari bilan jahon ma'rifati va madaniyatining namoyondasi sifatida tanildi.

Ibn Sinoning ta'lim va tarbiya sohalaridagi boy merosi o'z davrida jaholatiga qarshi kurashda juda katta progressiv ahamiyatga ega bo'ldi.

Ulug' zotning talay asarlaridagi g'oyalari olimlarimiz, pedagoglarimiz hamon o'rganmoqdalar, amaliy hayotga tadbqiq etmoqdalar. Buyuk alloma Ibn Sino bolaga bilim berish o'qituvchining ma'suliyatli burchi ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha bolalar bilan muomolada bosiq va jiddiy bo'lish, berilayotgan bilimning bolalar qanday o'zlashtirib olayotganiga e'tibor berish kabilar muhimdir.

Ibn Sino haqiqiy olim bo'lganligi sababli tilga doir ko'pgina ensiklopediya asarlarni yuzaga keltirdi.

Abu Ali Ibn Sino fanning qaysi bir sohasiga qo'l urmasin, unga falsafiy tus berdi. Uning shoir va adib sifatida yozgan asarlari ham o'zining falsafiy jihatdan chuqur g'oyalari asosida sug'orilganligi bilan ko'zga tashlanib turadi.

Sharq mumtoz madaniyatning butun dunyoga mashhur namoyondalaridan biri Sa'diy Sheroziy ta'lim-tarbiyada muallimning talabchanligi bilim va tarbiya berishda qattiqqo'llik bo'lishining tarafdori bo'ladi "Guliston" da ustoz shogird munosabatiga oid hikoyat keltiriladi: "Bir odam kurash san'atida zo'r mahorat kozondi, u 300 hiylani bilar va har kuni bir hiylani ishlatib ko'rishar edi. Shogirdlaridan biriga 259 hiylani o'rgatdi. Ammo bir hiylani o'rgatmadi. Ustozning hurmatini bilmagan shogird ustozidan ham ustunligini aytib maqtanadi. Bu so'z podshoga yoqmaydi. Ular kurash tushmoqlarini buyuradi. Ustoz ohirgi hiylasini ishlatib shogirdini yengadi. Ustoz hurmatini bilmagan shogird esa xaloyiq, va podshohning nafratiga uchraydi".

2. BOB. PSIXOLOGIYA FANLARINI O‘QITISHDA TA’LIM METODLARI VA SHAKLLARINING PSIXOLOGIK TALQINI.

2.1. Shaxs faoliyatida psixologik bilimlarning ahamiyati

Hozirgi kunda jahon psixologiyasi fani o‘zini o‘zi boshqarish va takomillashtirish, o‘zini o‘zi qo‘lga olish, o‘ziga o‘zi buyruq berish, o‘zini o‘zi tarbiyalash bo‘yicha boy ma’lumotlar to‘plagan, bu esa o‘z navbatida inson munosabati, maqsadi, holati, kechinmalarining o‘zgarishi va yangidan paydo bo‘lishi haqida ilmiy-tatbiqiy ma’lumotlar beradi, kundalik turmush psixologiyasi rang-barangligini ta’minlab turadi.

Psixologiya inson psixikasini aniqlash, shakllantirish, yangi sharoitga ko‘chirish, takomillashtirish, rivojlanish dinamikasini ta’minlash, yangi sifat bosqichiga o‘tishini qayd qilish imkoniyati borligi bilan o‘ta amaliy, tatbiqiy fanga aylangandir. Psixologiya fanining sohalari uning amaliyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi (huquqshunoslik psixologiyasi, klinik psixologiya, mehnat psixologiyasi, savdo psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, pedagogik psixologiya, maxsus psixologiya, sport psixologiyasi va hokazo). Psixologiya amaliy, tatbiqiy jihatdan o‘z predmetiga ega bo‘lib, amaliy ijtimoiy psixolog, injener (muhandis) psixolog, oilaviy psixolog, tibbiyot psixologi, maktab psixologi kabi bir qator sohalarni o‘z ichiga qamrab olgan. Psixologiya fani yaqqol inson fazilati, muayyan taraqqiyot xususiyatlari, mexanizmlari, qonuniyatlari, o‘ziga xoslik, alohidalik va yakkahollik tabiati yuzasidan bahs yuritadi. Shaxs kundalik turmushning o‘ziga xos psixologik bilimlarini egallagan bo‘lib, o‘z saviyasi, salohiyati bilan turlicha kamolot ko‘rsatkichiga egadir, hatto hayotiy faoliyatida to‘plangan bilimlar ilmiy psixologik bilimlardan ustunroq turishi ham mumkin (Qari bilganni–pari bilmas). Chunki yirik yozuvchilar (shaxslararo munosabat va muomala, muloqot xususiyatlari yuzasidan kuzatuvchanlikka egadirlar), shifokorlar, o‘qituvchilar, ruhoniylar, savdogarlar uzluksiz ravishda kishilar bilan muomalaga kirishishlari natijasida ularning ichki dunyosi va xulq-atvoriga oid 15 bilimlar bilan yuksak darajada qurollangandirlar. Lekin har qanday insonda ham ozmi yoki ko‘pmi psixologik bilimlar mavjuddir, buning dalili sifatida odamlarning bir-birlarini tushunishlari, ta’sir o‘tkazishlari, xulq-atvor oqibatini oldindan bashorat qilish, kishining yakkahol xususiyatlarini hisobga olgan holda unga yordam ko‘rsatishni ta’kidlab o‘tishning o‘zi kifoya. Endi kundalik turmushning psixologik bilimlari bilan ilmiy psixologik bilimlar o‘rtasidagi tafovutlar yuzasidan mulohaza yuritish ayni muddao bo‘lib, bunda kundalik turmushga oid psixologik bilimlar, dastavval, yaqqol va alohida olingan holat, vaziyatni o‘z ichiga qamrab oladi. Masalan, sinchkov bola o‘z maqsadiga yetish uchun otasiga, onasiga, buvasiga, opasi hamda akasiga har xil uslub bilan ta’sir o‘tkazadi, turlicha vositalardan foydalanadi. U ko‘zlangan maqsadiga erishish uchun katta yoshdagi odamlarning individual-tipologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ish tutadi. Kundalik turmushga oid psixologik bilimlar

aniq vaziyatga qaratilganligi, biror shaxsga yo'naltirilganligi bilan ilmiy psixologik bilimlardan farq qiladi. Ilmiy psixologiya esa muayyan metodlar, vositalar, uslublar, usullar va operatsiyalar yordamida ma'lumotlar to'plash va ularni umumlashtirishga intiladi hamda izlanayotgan ob'ektning xususiyati, holati, munosabati, bog'lanishi kabilarni aks ettiruvchi ilmiy tushunchalar, ta'riflar, qonuniyatlar, xossalalar yordamida psixologik mexanizmlarni kashf qilishga harakat qiladi. Odatda shaxsning xususiyatlari, sifatleri, fazilatleri, xislatleri, xulq-atvorlari, xatti-harakatlari bo'yicha turmush sharoiti va fan olamidagilar (hatto ilmiy tushunchalar, atamalar) o'zaro o'xshash ketsa-da, lekin ilmiy-psixologik mazmun, mohiyat, majmua o'zining tuzilishi, tarkibi, aniqligi, mantiqan izchilligi, ma'noning yig'iqqligi bilan keskin ajralib turadi.

Yuqorida yuritilgan mulohazalar kundalik turmush tajribasida to'planadigan psixologik bilimlar bilan ilmiy bilimlar orasidagi dastlabki (birinchi) farqni sharhlashga yo'naltirilganligi bois alohida ahamiyat kasb etsada, lekin shu narsani yoddan chiqarmaslik kerakki, turmushga oid amaliy psixologik bilimlarga asoslanmasdan turib, ilmiy psixologik nazariyalarni yaratish mumkin emas. Shunday ekan, amaliy bilimlar genetik kelib chiqishi nuqtai nazaridan birlamchi hisoblanadi. Hayotda juda ko'p uchraydigan, ayniqsa, o'qituvchilar, murabbiylar, trenerlar, rahbarlar, shifokorlar faoliyatida namoyon bo'luvchi ta'limiy, tarbiyaviy, tibbiy uslub arziyas ijobiy siljishni payqash imkoniyatini yaratadi. Amaliy faoliyatda erishilgan ushbu samara psixologik tahlilga muhtoj bo'lib, uni keltirib chiqaruvchi ob'ektiv yoki sub'ektiv omillarni dalillash ancha mushkul hisoblanadi. Buning uchun o'zgalarga ta'sir o'tkazish usuli, ularda ichki imkoniyatga ishonch tuyg'usini uyg'otish qo'zg'ovchisi, ta'sirga beriluvchanlikni kuchaytiruvchi motivlar (frans. «motif» - qo'zg'atuvchi sabab) tabiatini chuqur tahlil qilish va shu yo'l bilangina siljishning psixologik ma'no kasb etishini dalillash mumkin, xolos. Ilmiy psixologiyada katta hajmdagi materiallar, shu jumladan, qonuniyatlar, xususiyatlar umumlashtiriladi, insonning ichki imkoniyati, iste'dodi, ishchanligi, qobiliyati yuzasidan umuminsoniy tavsifga ega bo'lgan teran xulosalar chiqariladi. Buning natijasida odam psixikasini aniqlash, bashorat qilish, ayrim ruhiy nuqsonlarni tuzatish, noxush kechinmalarning oldini olish imkoniyati tug'ilib, bu esa ijtimoiy-psixologik bog'lanishlar mohiyatini oqilona tavsiflash uchun xizmat qiladi. Ijtimoiy va yakkahol turmush og'irliklari va tashvishlarini kamaytirish, aqliy hamda jismoniy zo'riqishlarni pasaytirish, shaxslararo nizolarni bartaraf etish singari sa'y-harakatlarni faqat ilmiy psixologik ma'lumotlarga asoslangan holda amalga oshirish mumkin. Shuning uchun psixologiyaning turli sohalari (yosh psixologiyasi, pedagogik psixologiya, tibbiyot psixologiyasi, sotsial psixologiya va boshqalar)da o'tkazilgan tadqiqot ishlari ilmiy asosda psixika, psixik holat, psixik hodisa, psixik jarayon, psixik funktsiya, psixik xususiyat, ijodiyot, faoliyat, ong, xulq va muomala singari

tushunchalar bo'yicha materiallar to'plab beradi, shuningdek, psixik aks ettirishning moddiy asoslari, mexanizmlari yuzasidan qonuniyat ochishga imkon yaratib, hatto insonni o'zligini anglash va boshqarish sari yetaklaydi.

Fanda yangi yo'nalishlar, yangicha yondoshuvlar paydo bo'ldi. Masalan, **sinergetik** yondoshuv barcha fanlarda bo'lgani kabi psixologiya, uning tarmoqlari hamda u bilan turdosh bo'lgan fanlar misolida yaqqol namoyon bo'la boshladi. Eslatib o'tamiz, "**sinergetlar**" so'zi grekcha "**synergetes** – xodimlar, sheriklar" so'zlaridan olingan bo'lib, sinergiya – **synergia** hamkorlikdagi, hamjihatlikdagi harakat ma'nosini anglatadi. Ya'ni, inson va uning psixologiyasini o'rganish va unga ta'sir ko'rsatishda gumanitar fanlarning hamkorlikdagi rivojlanishi yoki boshqacha qilib aytganda, ushbu fanlar maqsadlarining mushtarak uyg'unlashuvi shaxs iqtidori va qobiliyatlarini rivojlantirishning ishonchli vositasi sifatida qaraladi.

Bundan tashqari, yangi davr fanlarini rivojlantirishga **akmeologik** yondoshuv ham mavjudki, unga ko'ra, har bir fanning inson uchun ahamiyati va o'rni o'sha fanlarning shaxs kamolotiga qo'shajak hissaning salmog'ini belgilash va baholashni taqozo etadi. (**Akmeologiya** grekcha "**akme** – cho'qqi, yuqori pog'ona, gurkiratuvchi kuch" ma'nolarini bildiradi va uning predmeti deganda insonning o'z-o'zini rivojlantirish va o'zligini anglashini yuqori darajalariga yetishga o'rgatuvchi fanlar majmui tushuniladi).

Inson psixologiyasini bilish, o'z taraqqiyotini va iqtidorini tashkil etishni bilish, har qanday yosh davrda ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni, turli o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorlikni ta'minlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro'y berayotgan jarayonlarni obyektiv va to'g'ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosini ilgari surdi.

Shunday qilib, yangi davr har bir insondan o'z ichki imkoniyatlarini adekvat bilish, shu bilimlar zahirasi bilan yaqinlari va hamkasblari psixik dunyosini bilishni talab qilmoqda. Buyuk Suqrot o'z davrida "O'z-o'zingni bil!" degan shiorni o'rtaga tashlagan edi. Yangi davr bu bilimlar yoniga "O'z yoningdagilarni va ularning qilayotgan ishlarini ham bil", degan shiorni har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ydi. Ayni shu muammoni yechishda hozirgi zamon psixologiya ilmi va amaliyotining roli benihoya kattadir.

An'anaga aylanib qolgan hodisalardan biri shuki, psixologiya va u o'rganadigan hodisalarni faqatgina ushbu fan bilan bevosita shug'ullanadigan kimsalar o'rganib kelishgan, zero, psixologik hodisalar bilan har qanday inson ham tanish bo'lishi va u inson hayotining asosini tashkil etishi kerak. Yangi davr va uning o'zgarishlarga boy hayoti endi har bir kishining psixik hodisalar qonuniyatlarini bilish va shunga mos tarzda oqilona va omilkorona ish yuritish zaruratini talab qilmoqda.

Jahon hamjamiyatining mustaqil O'zbekistonni tan olishi, davlatimizning keng tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyati o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlari va imkoniyatlari

tiklanishiga, o'zini boshqa xalqlar oilasidagi to'la huquqli millat sifatida anglab yetishiga keng imkon yaratdi. Tobora kengayib borayotgan xalqaro aloqalar jahon madaniyatini yanada chuqurroq bilish, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lish uchun qulay zamin yaratmoqdaki, bu o'z navbatida o'zbek xalqining turli faoliyat sohalaridagi iste'dodi rivojlanishiga, uning tadbirkorlik va kirishimlilik, bir necha chet tillarni va kompyuter texnologiyalarini tez o'rganib olish kabi iqtidorini ro'yobga chiqishiga, xorijiy mamlakatlarga borish, ular bilan aloqalar o'rnatish, dunyo standartlari bo'yicha oliy o'quv yurtlarida tahsil olish imkonini berdi. Ana shunday keng ko'lamli aloqalarga qaramay, xalqimizda, ayniqsa, yoshlarda milliy qadriyatlarga hurmat, vatanparavarlik, saxovat an'analari yanada rivojlanib, iqtidorlari yuksaklarga ko'tarilmoqda. Bu insonga munosabatni, uni tarbiyalash ishining dolzarbligini yanada yaqqolroq tasavvur qilishga olib keldi.

Globalizasiya sharoitida psixologiya o'rganadigan muammolarning dolzarbligi, avvalo, har bir shaxsning murakkab insoniy munosabatlar, axborot kommunikasiyalari sharoitida yashayotganligi, inson xulqini boshqarish ayrim mamlakatlar uchun ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yetakchi omili sifatida e'tirof etilishi bilan izohlanadi. O'z vaqtida Hindistonning taniqli siyosiy arbobi Maxatma Gandi shunday yozgan ekan: "Men uyimning darvoza va eshiklarini mahkam berkitib o'tira olmayman. Chunki unga toza havo kirib turishi kerak. Va shu barobarida eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib, xonadonimni ag'dar-to'ntar qilib, o'zimni yiqitib tashlashini ham xohlamayman". Bu so'zlarni bugungi globalizasiya sharoitida insonning jamiyatda tutgan o'rni va zarur maqomni egallashiga, informasion xurujlar va turli xil ma'lumotlarning turli yo'llar bilan mamlakatimizga, umuman, boshqa mamlakatlarga ham kirib kelib, u yoki bu mintaqada asrlar mobaynida shakllangan qadriyatlar, urf-odatlar, e'tiqod shakllariga va tarbiya uslublariga salbiy yoki ijobiy ta'siri jarayonlari ma'nosida qo'llash shaxs ruhiyatiga aloqador siru-sinoatlarni bilishni, shaxsga o'z-o'zini himoya hilish, o'z ustida ishlash imkoniyatlarini bilishni dolzarb qilib qo'yadi. Zero, dunyoga yuz ochgan, yoshlari dunyo tillarini bimalol egallab, "**internetomaniya**" kasaliga chalinish arafasida turgan O'zbekistonga ham yaxshi, ham yomon ta'sirlar, xurujlar mavjudligi sharoitida shaxsning o'zini-o'zi psixologik jihatdan salbiy ta'sirotlardan himoya qila olish imkoniyatlarini kengaytirish eng dolzarb muammolardan biridir. Ya'ni, siyosat sohasimi, iqtisodiyotmi, mafkura yoki ma'naviyatmi, tarbiya yoki huquq masalalarimi, barchasida inson omili va uning manfaati talab va ehtiyojlarini o'rganish, undagi hayot jabhalariga ko'nikish va teran fikrlash qobiliyatlarini o'stirish fan oldida turgan eng muhim vazifadir. Yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash inson aqli va shuuri uchun kurashning eng samarali usullaridan biridir. Zero, davlatimiz rahbari Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, "Milliy g'oya va istiqlol mafkurasi haqida gap borar ekan, biz nihoyatda keng qamrovli, murakkab, ser-qirra, insoniyat tarixida aniq va mukammal ifodasi, tugal namunasi hali-

hanuz yaratilmagan tushunchalarni o'zimizga tasavvur qilishimiz kerak, deb o'ylayman. Bu tushunchalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g'oyalarning ma'no-mazmunini teran anglab yetishga xizmat qiladi. Bu mafkura xalqni xalq, millatni millat etadigan, uning sha'nu sharafi, or-nomusi, ishonch-e'tiqodini ifodalaydigan, jamiyatimizning o'ziga xos taraqqiyot yo'li, turmush tarzi, tub manfaatlariga tayangan holda muttasil rivojlanib, takomillashib boradigan g'oyalar tizimidir"¹.

Shaxs ongi va xulqiga tajovuzlarning ortib borayotganligi, xulqni boshqarish barcha sohalarda ustivor bo'lgan bir sharoitda insonning ruhiyatini, unda sodir bo'ladigan murakkab jarayonlarni, xolatlarni o'rganishning, yoshlarda mafkuraviy immunitetning shakllanishining ahamiyati ham oshib boraveradi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, odamni o'rganish qanchalik qadimiy va an'anaviy vazifa bo'lishidan qat'iy nazar, bugungi globalizasiya va bozor munosabatlariga o'tish davrida psixologiya fani uchun dolzarb bo'lmagan mavzu yoki jarayonning o'zi yo'qdir.

¹**Karimov I.A.** Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat etsin. – T.: O'zbekiston, 1998. – B. 15.

2.2. Zamonaviy psixologiya tarmoqlari, ilmiy amaliy anjumanlar va psixologik xizmat taraqqiyoti.

Hozirgi zamon psixologiyasi oldida to'rgan asosiy maqsad, va zamonaviy psixologiyaning ilmiy yondashishlari, turli yoshdagi insonlarda o'qish jarayonida shaxs fazilatlarini shakllantirish, kadrlarda kasbiy malakalarni egallash psixologik xususiyatlarini shakllantirish va kayta tayyorlash shakllantirish vazifalaridir. Xar bir shaxs qaytarilmas temperamentdir»- degan edi fiziolog olim I.P.Pavlov. Qolaversa, xar bir insonning o'zigagina xos imkoniyatlari mavjudligi va unga hamisha jiddiy e'tibor berish zarurligi hakida O'rta Osiyoning buyuk mutafakkirlari Ibn Sino, Farobiy va Beruniy ham o'z zamonalarida alohida qayd etib o'tganlar. Chunonchi, o'qituvchi bola shaxsini tarbiyalash uchun, dastavval uning «betakror olamiga» kira olishi va shunga mos keluvchi tarbiyaviy tadbirlar rejasini tuzishi va qo'llamogi lozim.

Taniqli ruxshunos olim L.S.Vigotskiy taraqqiyotga ilgarilab ketgan ta'limgina samarali bo'lishini qayta-qayta ta'kidlagan edi. Bugun bola kattalar yordamida amalga oshirilayotgan ishni ertaga o'zi bajarishi kerak. Bunga bolani xar tomonlama rivojlantiradigan uni fikrlashga o'rgatadigan, qobiliyatini asta-sekin o'sib borishga imkon yaratadigan, tafakkurining yangi-yangi qirralarini ochadigan pedagogik usullar va maxsus psixologik xizmat tizimi mavjud bo'lgan takdirdagina erishish mumkin. Yukoridagi muammolarni hal qilish jarayonida ta'lim muassasalari psixologlari quyidagi vazifalarni amalga oshirishlari lozim;

1. Xar bir o'quvchida namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan stress (xissiy zo'riqish) xolatlariga xos asosiy ko'rinishlarni aniqlash (Psixodiagnostik ishlar);

2. O'quv faoliyatini tashkil etish nazorat qilish va boshqarish jarayonida o'quv faolligi va samaradorligiga salbiy ta'sir etishi mumkin bo'lgan holatlarni oldindan ko'rib bilishi va ularni bartaraf etish uchun muntazam ravishda tegishli tadbirlar o'tkazish.

(Psixoprofilaktik ishlar);

3. Fanlarni o'zlashtirmaydigan o'quvchilarni o'zlashtira olmaslik sabablarini aniklash va shu asosda ular bilan alohida mustakil ishlar olib borish, ulardagi imkoniyatlarni keng miqyosda o'rganish va rivojlanishi orkali o'quvchi shaxsidagi faollikni oshirishni yo'llarini izlash. (Rivojlantiruvchi va psixokorreksion ishlar);

Psixologiya sohasida mukammal darsliklar yozila boshlagan davrga deyarli 180 yil bo'ldi. Shu davr ichida juda ko'plab ilmiy tadqiqot natijalarini o'z ichiga olgan monografiyalar, darsliklar, qo'llanmalar yozildi. Lekin, bu bilan fanning jamiyat hayotida tutgan o'rni juda oshib ketdi, deb bo'lmaydi. Sababi, psixologiya sohasida faoliyat ko'rsatgan barcha olimlar ko'proq diqqatlarini mavxum shaxs va individual psixologiyaga qaratdilar. Vaholanki, inson, uning

barkamolligi, jamiyat taraqqiyotiga bevosita ta'siri masalasi hozirgi davrga kelib, o'ta dolzarb va muhim muammolar qatoridan joy oldi.

XX asrda insoniyat texnika, elektronika va boshqa shunga o'xshash murakkab texnologiyalarni yaratgani bilan xarakterlansa-da, vaqti kelganda, shunday xolatga duch kelamizki, murakkab elektron texnikani yaratgan o'ta aqlli inson o'zi va o'zi atrofida qilarning ruhiy kechinmalarini to'g'ri baholay olmasligi sababli, o'zini nochor va kuchsiz sezishi mumkinligini hayot isbotladi.

XXI asrda juda ko'plab davlatlarda bo'lgani kabi dunyo xaritasida munosib o'rin olgan mustaqil O'zbekistonda ham barcha sohalarda tub islohotlar boshlandi. Bu islohotlarning barchasi inson omilini har qachongidan ham yuqori saviyaga ko'tarib, uning kuchi, idroki, salohiyati, ruhiy hamda ma'naviy barkamolligini bevosita taraqqiyot, rivojlanish va sivilizatsiya bilan uzviy bog'ladi. Bundan inson va uning mukammalligi, o'z ustida ishlashi, o'z mukammalligi xususida qayg'urishi muammosi har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasidagi "O'zbekistondagi demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari" mavzuidagi ma'ruzasida **yettinchi ustuvor yo'nalish** deb, barcha islohotlarning pirovard natijasini belgilab beradigan **inson omili** va mezoni ekanligi besabab ko'rsatib berilmagandir.

Inson psixologiyasini bilish, o'z taraqqiyotini va iqtidorini tashkil etishni bilish, har qanday yosh davrda ham optimal ravishda ishga yaroqlilikni, turli o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorlikni ta'minlash, yangicha fikrlash va tafakkur qilish, ro'y berayotgan jarayonlarni ob'ektiv va to'g'ri idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish muammosini ilgari surdi.

Shunday qilib, yangi davr har bir insondan o'z ichki imkoniyatlarini adekvat bilish, shu bilimlar zahirasi bilan yaqinlari va hamkasblari psixik dunyosini bilishni talab qilmoqda. Buyuk Suqrot o'z davrida «O'z - o'zingni bil!» degan shiorni o'rtacha tashlagan bo'lsa, yangi davr «o'z yoningdakilarni va ularning qilayotgan ishlarini ham bil», degan shiorni har qachongidan ham dolzarb qilib qo'ydi. Ayni shu muammoni yechishda hozirgi zamon psixologiya ilmi va amaliyotining roli benihoya kattadir.

An'anaga aylanib qolgan hodisalardan biri shuki, psixologiya va u o'rganadigan hodisalarni faqatgina ushbu fan bilan bevosita shug'ullanadigan kimsalar o'rganib kelishgan, zero, psixologik hodisalar bilan har qanday inson ham tanish bo'lishi va u inson hayotining asosini tashkil etishi kerak. Yangi davr va uning o'zgarishlarga boy hayoti endi har bir kishining psixik hodisalar qonuniyatlarini bilish va shunga mos tarzda oqilona va omilkorona ish yuritish zaruratini talab qilmoqda.

Psixologiya fanining ko'p sohalarida rivojlanganligi, bu fanining barcha muhim yo'nalishlari bo'yicha taraqqiy ettirish vazifasini qo'ydi. Olimlar oldiga fanni xo'jaligimiz va sanoat qurilishning barcha sohalariga joriy qilish vazifasi qo'yildi. Bu vazifalar o'zining nazariy va amaliy ahamiyati jihatidan keng hamda xilma-xildir. Hozirgi vaqtda psixologiya ko'p tarmoqlarga bo'linib butun bir psixologik fanlar sistemasini tashkil qiladi. Bu psixologik fanlarning har biri o'z ob'ekti, o'zining tekshirish metodlari va vazifalariga egadir. Har bir psixologiya sohasining o'zida hal qilishni talab qilib turgan jarayonlar oz emas. Har bir fanning asosiy vazifasi uning metodologiyasini aniqlab olishdir. Shuningdek, nazariy muammolarni ishlab chiqish amaliyot bilan bog'liq holda o'tkazilgan taqdirdagina yanada mahsuldor bo'ladi.

Kishilarning amaliy faoliyatida ko'pincha yangi faktlar, voqelik hodisalari o'rtasidagi yangi bog'lanishlar ochilib qoladi, shular tufayli nazariya yanada boyiydi, aniqlanadi va mukammallashadi. Ayni vaqtda, psixologiyadagi amaliy vazifalarning muvaffaqiyatli hal qilinishi nazariy muammolarning qay darajada hal qilinishiga qattiq bog'liq bo'ladi. Bundan buyon ham psixologiya masalalari Pavlovning oliy nerv faoliyati fiziologiyasi haqidagi ta'limoti asosidagina muvaffaqiyatli hal qilinishi mumkin. Inson miyasining tuzilishi va faoliyati sohalarini yanada o'rganishda Pavlovning shogirdlari va izdoshlari ancha yutuqlarni qo'lga kiritdilar. Bu yutuqlar ko'pchilik psixik hodisalarni tushuntirishda katta ahamiyatga egadir.

Ayni vaqtda shuni ham e'tiborga olmoq kerakki, kapitalistik mamlakatlar olimlarining orasida progressiv yo'nalishdagi psixologlar ham ishlamoqdalar. Shu psixologlarning ilmiy tekshirishlaridagi ijobiy yutuqlarni hisobga olishi va ulardan foydalanishlari lozim. Turli mamlakatlar psixologlari o'rtasidagi do'stlik aloqalarining mustahkamlanishi, tajriba almashtirish psixologiya fanining yanada samarali taraqqiy etishiga yordam beradi. Boshqa fanlarni o'rganish kabi, psixologiyani o'rganishni ham, avvalo, bilish, ma'lumot olish uchun ahamiyati bor. Biz psixologiyani o'rganib, voqe'likning g'oyat katta va sifat jihatdan o'ziga xos sohasi,- psixik hayot sohasi haqida bilim olamiz. Psixika qanday kelib chiqqan, hayvonot dunyosida psixik hayot formalari qanday taraqqiy etgan, odam psixikasi tarixan qanday rivojlangan, har bir odam tug'ilish paytidan tortib uning ongi qaysi shart-sharoitlarga qarab taraqqiy etadi, xarakter qanday vujudga keladi, odamning qobiliyatlari qanday shakllanadi - psixologning ilmiy tadqiqotlari ana shu savollarimizga javob beradi.

Odam tevarak-atrofdagi dunyoni qanday idrok etadi, u qanday esida qoldiradi, qanday esga tushiradi va fikr yuritadi, u qanday hislarni ko'nglidan kechiradi, odam tevarak-atrofdagi dunyoni o'z ehtiyojlariga moslashtirib, yangi moddiy va ma'naviy boyliklarni vujudga keltirib, qanday ish ko'radi - psixologiyani o'rganish bilan ana shu masalalarni bilib olamiz.

Psixologiyani o'rganish odamni psixika haqidagi va psixik hayotning xilma-xil hodisalari haqidagi bilimlar bilan boyitibgina qolmay, shu bilan birga odam aqlini ham o'stirishga yordam beradi. Odam aqlini o'stirish, jumladan, yangi bilimlar va ko'nikmalarni tezroq egallash, yangi nazariy va amaliy vazifalarni to'g'ri hal qilish qobiliyatini takomillashtirishda, o'z fikrlarini nutqda to'g'ri ifodalay bilish va boshqalarning nutqini to'g'ri tushuna bilishda ham o'z ifodasini topadi. Albatta, har bir fan bilan shug'ullanish odamni kamolga yetkazadi. Ammo psixologiya bu sohada alohida o'rin tutadi. Odam psixologiyani o'rganar ekan, avvalo o'z aql-idrokini, uning jarayonlarini bilib oladi, unga diqqat-e'tibor beradi, aqlning faoliyatini kuchaytiradigan shart-sharoitni bilib oladi va shu bilan o'z aql-idrokining ko'proq o'sishiga yordam beradi.

Psixik hayot hodisalari haqidagi ilmiy bilimlarni egallash shaxs dunyoqarashini shakllanishida katta ahamiyatga egadir. Tushunish kishilar ongidagi eskilik sarqitlariga qarshi kurashda, jumladan, har xil diniy taassub va xurofotlarga qarshi kurashda juda kuchli qurol bo'lib xizmat qiladi. Odam psixologiyani o'rganar ekan, o'zidagi psixik hayotni va boshqa kishilar psixikasini bila oladigan bo'lib qoladi. Bu bilim esa boshqa kishilarni va o'zini yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Psixologiya bilish, ma'lumot olish uchun ahamiyati shulardan iboratdir. Shu bilan birga psixologiya (jumladan, psixologiya metodlari) kishilar amaliy faoliyatining har xil turlarida - ta'lim-tarbiya, ishlab chiqarish, mehnat, meditsina, sud-huquqshunoslik, harbiy-mudofaa, san'at va boshqa sohalarda ham katta ahamiyatga egadir.

Pedagogika ishida, ya'ni yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashda psixologiya ahamiyati ayniqsa katta. Pedagog o'quvchilarga biron materialni tushuntirar ekan shu materialni bolalar qanday o'zlashtirayotganini ko'ruvchilar qanday idrok etayotganini, eslab qolayotganini, fikrlayotganini, ularda diqqat-e'tibor, hissiyot qanday namoyon bo'layotganini, bolalarning yosh xususiyatlariga qarab bu jarayonlar qanday ro'y berayotganini bilish lozim.

O'quvchini bilib olish – shu o'quvchining darslarni o'zlashtirish darajasini bilish demakdir, shuningdek, o'quvchining psixik xususiyatlarini bilish demakdir, uning qobiliyat va havaslari qanaqa ekanligini, uning diqqat – e'tibori, hislari, irodasi, xotirasi, tafakkuri qanday zohir bo'lishini bilish demakdir. Ta'lim – tarbiya ishida pedagog bolalarni bilimdan bahramand qilish, ularga ko'nikma va malaka berish bilangina kifoyalanib qolmay, shuningdek, o'quvchilar shaxsining hamma tomonlarini, dunyoqarashi, xarakteri, irodasi, qobiliyati va havaslarini takomillashtirishi lozim. Buning uchun esa psixikaning ayrim tomonlari qanday sharoitda va qaysi pedagogik usullar yordami bilan o'zlashtirishini va takomillashuvini bilmoq kerak. Har bir pedagog – o'qituvchi, tarbiyachi, maorif ishining rahbari – psixologiyani nima uchun bilishi kerakligi yuqorida aytilganlardan ravshan ko'rinib turibdi. Hozirgi paytda ishlab chiqarish, ishlab chiqarish ta'limi va mehnatni tashkil etishning har xil turlarida psixologiyadan keng foydalanilmoqda. Ishning har bir turi, har bir kasb odamdan tegishli bilim va mahorat talab qilish

bilan birga mahsus psixologik sifatlarni ham talab qiladi. Shu sababli, ixtisosga qarab murakkab va ma'suliyatli mehnat operatsiyalarini bajarishga to'g'ri keladigan kishilar mahsus psixologik tekshirishdan o'tkaziladi. Masalan, dastlabki kosmonavtlarni tanlashda talabgorlar xotirasi juda yaxshi, fahmi o'tkir, diqqatini bir narsadan ikkinchi narsaga tez ko'chira oladigan, aniq uyg'un harakatlarni tez bajara oladigan kishilarni ajratib olish maqsadida tekshirib ko'rildi. Korxonalar va boshqa xo'jalik, madaniy va ma'muriy muassasalarining hamda tashkilotlarning rahbarlari kadrlarni tanlay bilishi, ularni joy – joyiga qo'ya bilishi, ularga rahbarlik qila olishi kerak. Buning uchun esa ularning qobiliyatlari, xarakteri, mehnatga munosabati va boshqa shu kabilarning farqiga bora bilishi kerak.

Psixologiya meditsina bilan qadimdan bog'lanib keladi. Kasalliklar orasida psixik kasalliklar bo'ladi. Bunday kasalliklarni ham, asosan, psixologik vositalar bilan davolashga to'g'ri keladi. Vrach psixik kasalliklarni yaxshiroq ajrata bilmoq uchun odamning normal psixologiyasini ham bilish kerak. Boshqa kasalliklarni, ayniqsa, nerv kasalliklarini davolashda ham vrach bemorning ruhiy holatini bila olishi va kasallikning borishiga ruhiy holatning ta'sirini nazarda tutishi lozim. Vrach bemorga psixik ta'sir ko'rsatish vositalarini, ishontirish, maslahat berish va boshqa shu kabilarning ahamiyatini bilish kerak.

Psixologiya sud ishida ham muhim rol o'ynaydi. Sud xodimi ayblanuvchining ruhiy holatini, guvohlarning so'roqda aytgan gaplarini psixologik jihatidan tahlil qila bilishi kerak. Kishilar biron ayb, jinoyat qilganlarida nima niyat bilan shunday qilganliklarini sud xodimi fahmlay bilishi kerak. Aybdorlarning individual xususiyatlarini ham bilib olishga to'g'ri keladi. Bularning hammasida ustalik bilan ish ko'rmoq uchun odamning psixikasini bilish, psixologiyani o'rganish kerak.

Psixologiyaning san'atdagi ahamiyatini ham ko'rsatib o'tmoq kerak. Har bir san'atkor (artist, muzikant, rassom va shunga o'xshashlar) kishilarga – tomoshabinlarga, tinglovchilarga o'z ijodi bilan ta'sir ko'rsatishni maqsad qilib qo'yadi. Buning uchun esa odamning qanday idrok qilishini, qanday fikrlashini va qanday his qilishini bilmoq kerak. San'at arbobi obraz yaratish ustida ishlaydi, shu obrazning biror badiiy vosita bilan gavdalandiradi. Buning uchun san'atkor obrazni qanday elementlardan qay tariqa yaratilishini bilishi kerak. U ijodiy faoliyat psixologiyasini bilishi shart.

Psixologiyani bilish kundalik turmush uchun ham foydali. Har kim doimo boshqa kishilar o'rtasida bo'ladi, muayyan munosabatlar – tanish-bilishlik, oshna-do'stlik va boshqa shu kabilar tufayli boshqa kishilar bilan aloqa qiladi. Har birimizga boshqa kishilarning xarakter, havas, kayfiyatlarini bilib olishga, kishilarning bir-birini ajratishga va ularga ta'sir ko'rsatishga to'g'ri keladi. Bu yerda shuni aytish kerakki, odamzod faoliyatining turli sohalarida psixologik bilimlarning amalda qo'llanish psixik hayot hodisalari, uni qonuniyatlari, haqidagi bilimlarini

kengaytirish, chuqurlashtirish va oydinlashtirish uchun ham ko'p material beradi va shu bilan psixologiyani nazariy sohalarini boyitadi.

Psixologiyaning ilmiy bilish va amaliy ahamiyati shundan ham ko'rinadiki, psixologiyaning tarixiy taraqqiyotida unda bir qancha mahsus tarmoqlar ajralib chiqdi. Psixologiyaning bu tarmoqlari hozirgi vaqtda mustaqil fanlar darajasiga ko'tarildi.

Psixologiyaning shu tarmoqlaridan bir qismi ko'proq nazariy xarakterda bo'lsa, ikkinchisi ko'proq amaliy xarakterdadir. Psixologiyaning ayrim tarmoqlari shulardan iborat: umumiy psixologiya, yosh psixologiyasi (jumladan, bolalar psixologiyasi) pedagogik psixologiya, mehnat psixologiyasi, harbiy psixologiya, san'at psixologiyasi, sport psixologiyasi, sud psixologiyasi, meditsina psixologiyasi, psixopotologiya.

Hozirgi zamon psixologiyasi juda ham ko'p tarmoqli fan bo'lib, uning tarmoqlari rivojlanishning turli bosqichida ekanligi va hayotning turli sohaları bilan bog'liqligi bilan xarakterlanadi. Bunday sertarmok bulgan psixologiyani kandy klassifikatsiya kilmok kerak? Klassifikatsiya kilishning eng muxim shartlaridan biri psixikaning faoliyat protsessida rivojlanishiga asoslanishdan iboratdir.

Shunday qilib, psixologiyani inson faoliyatining konkret turiga karab klassifikatsiya qiladigan bo'lsak, uning bir qancha tarmoqlari borligini ko'ramiz.

I. Mexnat psixologiyasi. Bu inson mexnat faoliyatining psixologik asoslarini, mexnatni ilmiy asosda tashkil kilishning psixologik tomonlarini o'rganadi. Mexnat psixologiyasi ma'lum darajada mustaqil bo'lgan, lekin bir-biri bilan chambarchas bog'langan turlarga bo'linadi:

- Injenerlar psixologiyasi
- Aviatsiya psixologiyasi.
- Kosmik psixologiyasi.

II. Pedagogik psixologiya.

Bu ham uz navbatida bir kancha turlarga bulinadi:

- Ta'lim psixologiyasi. (didaktika va xususiy metodikalarning psixologik asoslari, programmalashtirilgan ta'lim, akliy faoliyatlarning shakllanishi va boshqalar).
- Tarbiya psixologiyasi. (tarbiya metodikasining psixologik asoslari, o'quvchilar jamoasi psixologiyasi, mexnat – axloq tuzatish pedagogikasining psixologik asoslari).
- O'qituvchi psixologiyasi.
- Aqli zaif bolalar tarbiyasi psixologiyasi.

III. Meditsina psixologiyasi. Bu shifokor faoliyatining psixologik tomonlarini va kasal xulqini o'rganadigan fandir. Bu fan ham o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi:

- Neyropsixologiya – bu bosh miya nervlari faoliyati asosida vujudga keladigan psixologik xolatlarni urganadi.
- Psixofarmakologiya. – bu turli dorilarning inson psixik faoliyatiga ta’sirini o’rganadi.
- Psixoterapeya – bu kasallarni davolashda psixologik ta’sir qilishdan foydalanish yo’llarini o’rganadi.
- Psixoprofilaktika va psixogigiena – bu kishilarni psixik tomondan soglom bo’lishini ta’minlashga oid tadbirlar ishlab chikish bilan shug’ullanadi.

IV. Yuridik psixologiya. Bu o’z navbatida quyidagilarga bo’linadi:

- Sud psixologiyasi.
- Kriminal psixologiya.
- Mexnat – tuzatish psixologiyasi.

V. Xarbiy psixologiya.

VI. Sport psixologiyasi.

VII. Savdo psixologiyasi.

Bordiyu, psixologiya sohalarini klassifikatsiya kilishda psixikaning rivojlanishini asos qilib olsak, unda psixologiyaning yana quyidagi sohaları mavjudligini ko’ramiz:

1. Yosh psixologiyasi. Bu o’z navbatida quyidagilarga bo’linadi:

- Bolalar psixologiyasi.
- O’smirlar psixologiyasi.
- Yoshlar psixologiyasi.
- Katta kishilar psixologiyasi.
- Gerantopsixologiya. (Karilar psixologiyasi).

2. Maxsus psixologiya.

- Patopsixologiya – miyaning o’sish davrida kasallanishi tufayli psixikada yuz beradigan o’zgarishlarni o’rganadi.
- Olegofrenopsixologiya – bu miyasida tug’ma kamchiligi bor bolalar psixikasining o’sish masalalari bilan shug’ullanadi.
- Surdopsixologiya – karlarning psixik taraqqiyotini o’rganadi.
- Tiflopsixologiya – ko’rlar va ko’rish qobiliyati pastlarning psixologik taraqqiyotini o’rganadi.


3. Solishtirma psixologiya – bu xayvonlar psixikasi bilan inson psixikasini taqqoslab o’rganadigan fandır. Uning tarmog’i zoopsixologiyadir.

4. Ijtimoiy psixologiya. Bu kishilarning jamoadagi o’zaro munosabati jarayonida vujudga keladigan psixologik xolatlarni o’rganadi. Moda va eskilik koldiklarining ta’siri, turli

mish-mishlar ta'sirida xosil bo'ladigan jamoatchilik kayfiyatini o'rganish ham ijtimoiy psixologiya vazifasiga kiradi. Uning tarmogi din psixologiyasidir.

5. Shaxs psixologiyasi. Buning vazifasi shaxsning individual – psixologik xususiyatlari: xarakteri, oliy nerv faoliyati tipi va temperamenti, qobiliyatlari, xulqining bosh motivlari, kasbga qobiliyati va ko'nikmalari kabilarni o'rganishdir. Uning bo'limlariga:

- Xarakterologiya.
- Individual psixologik farqlar tipologiyasi
- Professiografiya (kasbga bo'lgan qobiliyati va ma'lum bir kasbga yarokli ekanligini urganadigan fandir).



Mentalitet psixologiyasi Xozirgi tezkor o'tib borayotgan kunda ayrim sabablarga ko'ra xalqlar mentaliteti aktuallik tusini olmokda. Bu o'z navbatida quyidagilarda ko'rinadi.

Birinchidan; insonning ongli faoliyatini xozirgi kun va kelajak taraqqiyotda aniqlovchi faktor bo'lib kelayotganligida.

Ikkinchidan; xar bir xalqning dunyoqarashi, fikrlashi, tafakkuri, kayfiyati, axloqiy xislatlar taraqqiyotiga boglikligida.

Uchinchidan: So'nggi yillarda davlatlararo aloqalarning jadallashuvidagi fuqarolar bilan to'siqlarning olinishi keng ko'lamda xalklar o'rtasida sezilarli darajada farqlar mavjudligida va oqibatda psixologik hodisalar farqini aks ettiruvchi yangi «Mentalitet» tushunchasini kirib kelganligida. Ko'p mualliflarning ta'riflashicha mentalitet-bu konkret (aniq) madaniyatda yashab atrof muxitni o'ziga xos bo'lgan xissiyot bilan ko'rib, ta'riflab berish va bunga o'zgacha

munosabatini bildirishidir. Bunda gap jamoa mentaliteti tugrisida boradi. Mentalitet nima? «Mentalitet» soʻzi Yevropacha boʻlib (soʻnggi lotin tilidagi «mentalis») real psixologik xolatni aks ettiruvchi soʻzdir. Psixologik lugatlarda «mentality» tushunchasi quyidagicha taʼriflanadi:

- individ yoki individlar sinfini xarakterlovchi ong sifatleri.
- aql (idrok)ni farqlatuvchi barcha xarakteristikalarining (tushunchalarning) umumiy yigʻindisi.
- Kobiliyat yoki aql (idrok)ning kuchi.
- Fikr yuritish tarzi, fikr yuritish yoʻnalishi yoki xarakteri.
- Jismoniy fazilatlardan farqli ularoq fikr yuritish bu qobiliyatlar yigindisi yoki imkoniyatidir.

Xozir mentalitet deb maʼlum bir davr, geografik mintaka, ijtimoiy muxit tushunchalari, karashlari fikrlashlari bir bulgan xalk jamiyatning tarixiy va ijtimoiy protsesslariga taʼsir etuvchi aloxida psixologik tizimlar tushuniladi.

2.3. Psixologiyaning yaqin oradagi vazifalari.

Psixologiya fanining ko'p sohalarida rivojlanganligi, bu fanining barcha muhim yo'nalishlari bo'yicha taraqqiy ettirish vazifasini qo'ydi. Olimlar oldiga fanni xo'jaligimiz va sanoat qurilishning barcha sohalariga joriy qilish vazifasi qo'yildi. Bu vazifalar o'zining nazariy va amaliy ahamiyati jihatidan keng hamda xilma-xildir. Hozirgi vaqtda psixologiya ko'p tarmoqlarga bo'linib butun bir psixologik fanlar sistemasini tashkil qiladi. Bu psixologik fanlarning har biri o'z ob'ekti, o'zining tekshirish metodlari va vazifalariga egadir. Har bir psixologiya sohasining o'zida hal qilishni talab qilib turgan jarayonlar oz emas. Hozirgi vaqtda psixologlar, pedagoglar hamda metodistlar bilan birgalikda ta'lim ishlari va o'quvchilarga tarbiya berishning saviyasini ko'tarishga yordam berishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilishga e'tibor bermoqlari kerak. Ta'lim va tarbiyaning psixologik asoslari haqidagi masala shunday muammolar jumlasidandir. Ma'lumki, ta'lim-tarbiyaning muvaffaqiyati o'quv materialining mazmunigagina, ta'lim-tarbiya metodlarigagina bog'liq emas. Bu muvaffaqiyat ko'p jihatdan o'quvchining qanday o'qiyotganligini bilishga, ya'ni o'quvchining yosh xususiyatlariga, dastlabki aqliy taraqqiyoti va faolligiga muvofiq bilim va malakalar o'zlashtirish jarayonining psixologik asoslarini bilishga ham bog'liqdir. O'quv materiali mazmunini tanlash, o'quv programmalari va rejalari, darslik va o'quv qo'llanmalari tuzish, shuningdek maktab ta'limining har xil bosqichlarida turli o'quv predmetlari bo'yicha o'qitish metodlari sistemasini tashkil qilish va tanlash ham ko'p jihatdan ta'limning psixologik asoslarini bilishga va hisobga olishga bog'liq.

Shiddat bilan hayotimizga XXI asr kirib keldi. Uning global o'zgarishlar davri bo'lishiga hych kimda shubha qolmadi, desak bo'ladi. Chunki bu davrda eng avvalo inson ongi va ruhiyatida evrilishlar yuz bermoqda. Bu xolat Inson va uning ichki dunyosini, zamondoshlarning bir-birlari ongi va shuurida ro'y berayotgan o'zgarishlarga monand xatti-harakat qilishlari lozimligini talab qiladi. Davrimiz insonni mustaqil fikrli shaxs sifatida har bir soniyada o'ylashga, fikrlashga, mulohaza yuritib, o'zi uchun xulosalar chiqarishga majbur etmoqda. Ya'ni, bu cheksiz olamda biz o'zimizni o'zgalarsiz, o'z manfaatlarimizni o'zgalar manfaatlisiz tasavvur qila olmaganimiz uchun ham psixologiyani bilishga majburmiz. Zero, mustaqil davlatimizning siyosati Inson manfaatini himoya qilish, uning uchun munosib turmush tarzini yaratish ekan, bu ishlarni amalga oshirish uchun bo'lg'usi mutaxassis, u pedagog-o'qituvchi bo'ladimi yoki quruvchi-muxandis yoki agronom bo'ladimi, shifokor bo'lib, el dardiga darmon bo'ladimi, ijtimoiy borliq qonuniyatlarini bilishi va undan maromida foydalib, turmush normalariga bo'ysunishi, jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallab, fuqarolik burchini ado etishga tayyor bo'lishi darkor. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, talabalar xukmiga havola etilayotgan ushbu

darslik jamiyatdagi Shaxs psixologiyasini o'rganish va uning tamoyillariga bo'ysunishni taqozo etadi.

Psixologiya fanining ko'p sohalarida rivojlanganligi, bu fanining barcha muhim yo'nalishlari bo'yicha taraqqiy ettirish vazifasini qo'ydi. Olimlar oldiga fanni xo'jaligimiz va sanoat qurilishning barcha sohalariga joriy qilish vazifasi qo'yildi. Bu vazifalar o'zining nazariy va amaliy ahamiyati jihatidan keng hamda xilma-xildir. Hozirgi vaqtda psixologiya ko'p tarmoqlarga bo'linib butun bir psixologik fanlar sistemasini tashkil qiladi. Bu psixologik fanlarning har biri o'z ob'ekti, o'zining tekshirish metodlari va vazifalariga egadir. Har bir psixologiya sohasining o'zida hal qilishni talab qilib turgan jarayonlar oz emas. Psixologiyasida eng dolzarb deb hisoblash mumkin bo'lgan ba'zi bir masalalarga to'xtalib o'tamiz. Har bir fanning asosiy vazifasi uning metodologiyasini aniqlab olishdir. Shuningdek, nazariy muammolarni ishlab chiqish amaliyot bilan bog'liq holda o'tkazilgan taqdiridagina yanada mahsuldor bo'ladi. Haqiqiy dalillarga asoslangan, amaliyotda sinalgan nazariyagina haqiqiy ilmiy nazariyadir. Kishilarning amaliy faoliyatida ko'pincha yangi faktlar, voqelik hodisalari o'rtasidagi yangi bog'lanishlar ochilib qoladi, shular tufayli nazariya yanada boyiydi, aniqlanadi va mukammallashadi. Ayni vaqtda, psixologiyadagi amaliy vazifalarning muvaffaqiyatli hal qilinishi nazariy muammolarning qay darajada hal qilinishiga qattiq bog'liq bo'ladi. Bundan buyon ham psixologiya masalalari Pavlovning oliy nerv faoliyati fiziologiyasi haqidagi ta'limoti asosidagina muvaffaqiyatli hal qilinishi mumkin. Inson miyasining tuzilishi va faoliyati sohalarini yanada o'rganishda Pavlovning shogirdlari va izdoshlari ancha yutuqlarni qo'lga kiritdilar. Bu yutuqlar ko'pchilik psixik hodisalarni tushuntirishda katta ahamiyatga egadir.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin O'zbekistonda psixologiya fanining rivojida keskin burilish yuz berdi. Hozirgi kunda ko'plab fan nomzodlari bilan birga fan doktorlari, professorlar faollik ko'rsata boshladilar. Jumladan, G'. Shoumarov (1990 yilda fan doktori, 1993 yili professor) differensial psixologiya, ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya, oila psixologiyasi, shaxs psixologiyasi, psixodiagnostika, o'zbek oilasining ijtimoiy psixologik, etnopsixologik xususiyatlari masalasini o'rganishga katta e'tibor berdi. Respublikada psixologik xizmat ko'rsatishni tashkil qilish, yosh va pedagogik psixologiya, boshqaruv psixologiyasini yoritishga oid darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ilmiy-amaliy maqolalar yaratdi.

E.G'oziev (1992 yilda psixologiya fanlari doktori, 1994 yilda professor), ta'lim jarayonida o'quvchilar tafakkurini o'sishi, o'quvchilarni umumlashtirish usullariga o'rgatish va ularning aqliy taraqqiyoti, o'quv faoliyatini boshqarish, tafakkur, xotira, shaxs, psixologiyasi masalalari, bilish nazariyasining psixologik muammolari, komil insonni tarbiyalashning psixologik asoslari kabi masalalarni yoritishga e'tibor berdi. Uning «O'quvchilar o'quv faoliyatini boshqarish»

(1988yil), «Oila etikasi va psixologiyasi» (1992 y), «Psixologiya» (1999y) «Tafakkur», «Xotira», «Shaxs», «Umumiy psixologiya» (psixologiya mutaxassisligi uchun darslik. I – II kitob. T., 2002.) nomli qo‘llanmalari ko‘p sonli talabalarning asosiy o‘quv qo‘llanmasi bo‘lib xizmat qilmoqda.

R.Z.Gaynutdinov (1992 yilda psixologiya fanlari doktori, 1997 yildan professor) «Psixologiya upravleniya v organax vnutrennix del» (o‘quv qo‘llanma. 2001 yil), «Psixologicheskie osobennosti nesovershennoletnix i ix uchet pri doprose» (T., 2000), «Samosoznanie i samoregulyatsii uchitelya» (o‘quv metodik qo‘llanma, 1991), «Uchitelyu o psixologii vospitaniya»(1994y) kabi ko‘plab dolzarb muammolariga bag‘ishlangan ilmiy, uslubiy maqolalar chop ettirdi. Shuningdek psixologiya fanlari doktori(1992), professor(1996) A.Tokareva ilmiy-pedagogik faoliyati davomida shaxsni ahloqiy rivojlanishi masalalari, turli xil yosh davrlarda shaxs ahloqiy qobiliyatlarining shakllanishi asoslari, komandalik taktiga mutaxassislarni tayyorlash jarayonini optimallashtirishning psixologik-pedagogik tomonlariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordi va bu sohada ko‘pgina ilmiy maqola va qo‘llanmalar nashr qilindi.

O‘zbek xalqining xotin-qizlari ichida birinchi marta psixologiya fanlari doktori (1994) ilmiy darajasini olgan farg‘onalik ayol V. Karimova ham O‘zbekistonda psixologiya fanining ravnaqiga katta hissa qo‘shmoqda. Uning ilmiy-tadqiqot yo‘nalishida etnopsixologik g‘oyalar katta o‘rin oldi. U o‘zbek xalqining milliy ana‘analari, qadriyatlari, rasm-rusumlari psixologiyasi, o‘zbek ayolining ijtimoiy mavqeini oshirish, ularni keng xalq ommasiga singdirish bo‘yicha ilmiy ishlarni amalga oshirmoqda. Uning yangi o‘quv dasturlari, darsliklari, o‘quv qo‘llanmalarni qayta ko‘rib chiqish va milliy istiqlol mafkurasi konsepsiyasini ishlab chiqishdagi, oila va mahalla tizimidagi g‘oyalarni xalq ongiga singdirish haqidagi izlanishlari maqsadga muvofiqdir.

Olimaning «O‘zbek ayoli shaxsining shakllanishi»(1986), «Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot» (1999), «Tashkiliy hulq» (1999), «Mustaqil fikrlash»(2000 y), «Psixologiya» (2000), «Salomatlik psixologiyasi» kabi o‘quv qo‘llanmalaridan universitet va pedagogika oliygohlarining o‘qituvchi va talablari keng foydalanmoqdalar.

Iste’dodli psixolog B.R. Qodirov (psixologiya fanlari doktori, professor) o‘zining ijodiy faoliyatini iqtidorli yoshlarni o‘rganishga bag‘ishladi. U differensial psixologiya sohasida yoshlarning individual xususiyatlarini o‘rgandi. Yoshlarda ijtimoiy qiymatga ega bo‘lgan o‘quvchilarning faoliyat yo‘nalishlari, layoqat va birlamchi qobiliyatlarining miya mexanizmlari o‘rganildi. Yoshlarni u yoki bu ijtimoiy faoliyat yo‘nalishlarini tanlashlari elektroensefalografik usullar bilan neyrofiziologik jihatlarini tadqiq qilindi. Olingan ma’lumotlar miya faoliyatida kasb tanlash, kasbga moyillik va layoqat turlarini ta’minlab turadigan muqobil neyrofiziologik xislatlar borligini isbot etdi. Zehn testlari majmuasi shakllantirildi.

Z. Qodirova (2001 yilda fan doktori) yoshlarning ijtimoiy faolligini, ularni ijtimoiy muhitga moslashuvini tezlashtiruvchi omillar va ularni daraja tuzilmasini aniqlash, faollikning rolini talqin qilish, ya'ni jamiyat yaratishda yoshlarning ijtimoiylashuvi jarayonidagi faollik, shaxs ichki dunyosi muammolarining ijtimoiy- falsafiy jihatlarini tadqiq qilish masalalari bo'yicha faollik ko'rsatmoqda.

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, ya'ni psixologiya fani O'zbekistonda 20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab turli jabhalarda rivojlandi. Psixologiyaning turli sohaları bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. O'zbekiston Respublikasi psixologlar assotsiatsiyasi tashkil topdi. Hali psixologiya fanining turli sohalarida yoritilmagan, yetarli ilmiy jihatdan o'rganilmagan muammolar juda ko'p. Ularni o'rganish respublikamiz psixologlarining asosiy vazifalaridir.

3.BOB. PSIXOLOGIIK BILIMLARNI EGALASHNING AMALIY AHAMIYATI

3.1. Psixologiyani o'rganish usullari va ularning psixologik tavsifi

Boshqa fanlarni o'rganish kabi, psixologiyani o'rganishni ham, avvalo, bilish, ma'lumot olish uchun ahamiyati bor. Biz psixologiyani o'rganib, voqe'likning g'oyat katta va sifat jihatdan o'ziga xos sohasi,- psixik hayot sohasi haqida bilim olamiz. Psixika qanday kelib chiqqan, hayvonot dunyosida psixik hayot formalari qanday taraqqiy etgan, odam psixikasi tarixan qanday rivojlangan, har bir odam tug'ilish paytidan tortib uning ongi qaysi shart-sharoitlarga qarab taraqqiy etadi, xarakter qanday vujudga keladi, odamning qobiliyatlari qanday shakllanadi - psixologning ilmiy tadqiqotlari ana shu savollarimizga javob beradi. Odam tevarak-atrofdagi dunyoni qanday idrok etadi, u qanday esida qoldiradi, qanday esga tushiradi va fikr yuritadi, u qanday hislarni ko'nglidan kechiradi, odam tevarak-atrofdagi dunyoni o'z ehtiyojlariga moslashtirib, yangi moddiy va ma'naviy boyliklarni vujudga keltirib, qanday ish ko'radi - psixologiyani o'rganish bilan ana shu masalalarni bilib olamiz. Psixologiyani o'rganish odamni psixika haqidagi va psixik hayotning xilma-xil hodisalari haqidagi bilimlar bilan boyitibgina qolmay, shu bilan birga odam aqlini ham o'stirishga yordam beradi. Odam aqlini o'stirish, jumladan, yangi bilimlar va ko'nikmalarni tezroq egallash, yangi nazariy va amaliy vazifalarni to'g'ri hal qilish qobiliyatini takomillashtirishda, o'z fikrlarini nutqda to'g'ri ifodalay bilish va boshqalarning nutqini to'g'ri tushuna bilishda ham o'z ifodasini topadi. Albatta, har bir fan bilan shug'ullanish odamni kamolga yetkazadi. Ammo psixologiya bu sohada alohida o'rin tutadi. Odam psixologiyani o'rganar ekan, avvalo o'z aql-idrokini, uning jarayonlarini bilib oladi, unga diqqat-e'tibor beradi, aqlning faoliyatini kuchaytiradigan shart-sharoitni bilib oladi va shu bilan o'z aql-idrokining ko'proq o'sishiga yordam beradi. Psixologiya sohasiga ta'luqli nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lish va uni amalda qo'llash barcha kasbiy faoliyatni samarali bo'lishini kafolatlaydi. Lekin psixologiyani nazariy bilimlariga ega bo'lganlar amaliy tajribalar tashkil etish, natijalarni tahlil qilish va xulosalash malakalariga ham ega bo'lishlari maqsadga muvofiqdir. Shu o'rinda psixologiya sohasida olib boriladigan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar muammolariga to'xtalib o'tmoqchimiz. Oddiy bir psixologik tajriba o'tkazish uchun ham avvalo bilim, ko'nikma va malaka kerak bo'ladi. Psixologiyada chinakkam ilmiy bilimga ega bo'lmoq uchun psixikani tekshirish metodlarini bilish va shu metodlardan foydalana bilish kerak. Har bir pedagog kishilar psixikasini tekshirish uchun loaqal eng oddiy usullarni bilishi lozim.

Psixologik eksperimentlar o'tkazishda psixologiyani o'ziga hos metodikalaridan foydalaniladi. Ayni bu metodikalar orqali shaxsning psixologik holatlari, xususiyatlari, bilish jarayonlari tadqiq etiladi. Olingan natijalarning taxlillari asosida har bir jarayonni psixologik sifat taxlili ishlab chiqariladi. Psixologiyada olib boriladigan tadqiqot ishlari psixodiagnostik,

psixokorreksion usullar yordamida amalga oshiriladi. Shuningdek shaxsning psixik holatlarini va bilish jarayonlarini aniqlashda quyidagi metodlardan foydalaniladi.

Psixologiyada tekshiriladigan psixik hayot hodisalari juda xilma-xil va murakkab hodisalardir. Bu hodisalar qanday metodlar bilan, ya'ni qaysi yo'llar bilan, qanday usullar bilan tekshiriladi, degan savol tug'iladi. Psixologiyada chinakkam ilmiy bilimga ega bo'lmoq uchun psixikani tekshirish metodlarini bilish va shu metodlardan foydalana bilish kerak. Har bir pedagog kishilar psixikasini tekshirish uchun loaqal eng oddiy usullarni bilishi lozim. Xar bir fan kabi psixologiya ham psixik (ruhiy) hayot hodisalarini chinakkamiga ilmiy asosda bilib olish uchun quyidagi talablariga amal qilish lozim: Tekshiriladigan har bir psixik hodisaga boshqa hodisalar bilan bog'langan deb qaralishi zarur. Masalan, psixik hodisaning uning nerv fiziologik asosdan ajratib o'rganish yaramaydi, xotirani tafakkur, diqqat va umuman shaxsdan ajratib o'rganish yaramaydi.

Har bir psixik hodisa va umuman shaxs vujudga kelish, taraqqiy etish va o'zgarish jarayonida ko'zdan kechirilishi zarur. Shuning uchun, masalan, bolalar va o'smirlar psixikasining taraqqiyot qonunlarini bilmasdan turib, voyaga yetgan odam psixikasining yetarlicha yaxshi bilib bo'lmaydi. Psixik hayot hodisalarining ularning taraqqiyot jarayonidan o'rganganda miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishini va bir sifat holatining ikkinchi sifat holatiga o'tishini ko'zdan kechirmoq kerak. Masalan, odam psixikasining taraqqiy etishini o'rgana turib, bilim olish va to'plash jarayonida odamning bilish qobiliyatlari: xotirasi, tafakkuri va nutqi, mushohadakorligi sifat jihatidan o'zgarishni ko'rsatib bersa bo'ladi. Odam ongi uning tarixiy taraqqiyotida shakllanadi. Hozirgi mustaqillik sharoitida milliy ongning shakllanishiga taalluqli umumiy ilmiy qonuniyatlarni izlash, yangicha tafakkur qilish va dunyoqarashni shakllantirish milliy mafkura va milliy g'oyani shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Odamning tevarak atrofdagi voqe'likni bilishi kuzatishdan, tajribadan boshlanadi. Shu sababli, ilmiy psixologiya ham o'z mavzuini o'rganishni tajribadan, psixik hayot faktlarini aniqlash, tasvir etish va tahlil qilishdan boshlashi lozim. So'ngra, aniqlangan va tahlil qilingan faktlar asosida, psixik hayot qonuniyatlarini ochib, tegishli nazariy va amaliy xulosalar chiqarilishi lozim. Har bir fandagi kabi psixologiyada ham tajriba, kuzatish va eksperiment shaklida qo'llaniladi. Kuzatish va eksperimentdan tashqari, ilmiy tekshirishning boshqa mahsus medotlari: suhbat metodi, biografiya metodi, solishtirma tarixiy metod va boshqa metodlar ham qo'llaniladi.

Kuzatish metodi.

Psixik hodisalar hayotda, ya'ni tabiiy sharoitda, odamning turli-tuman faoliyatida qanday ko'rinishda voqe bo'lsa, o'sha ko'rinishda kuzatish metodining yordami bilan o'rganiladi.

Tashqi kuzatish.

Psixik hayot hodisalarini o'rganishda avvalo tashqi kuzatish metodi tadbiiq etiladi. Kuzatishning asosiy hususiyati shundaki, bu metod yordami bilan psixik hayotni sezgi organlarimiz bevosita seza oladigan, o'zimiz bevosita idrok qila oladigan faktlari aniqlanadi va tasvirlanadi. Kishining psixik hayotida: mimika, imo-ishora, nutq, turli harakatlar va umuman kishining butun xatti-harakati va faoliyatini bevosita kuzatish bimalol mumkin. Psixik jarayonlar bilan bevosita bog'langan ba'zi bir fiziologik hodisalar turqning o'zgarishi, nafas olish, qon aylanish va shu kabilarning o'zgarishi ham tashqaridan kuzatilsa bo'ladi. Kuzatish ma'lumotlarini so'zlar bilan tasvir etish bilan kifoyalanib qolmay, balki ko'rsatma vositalari, suratga olish, kinoga olish, tovushni yozib olish va shu kabi yo'llar bilan ham qayd qilish mumkin. Masalan, bolalar nutqini o'sib borishini kuzatish yo'li bilan tekshira olamiz. Bunda bolaning so'z boyligi qanday qilib sekin-asta orta borishini, nutqning fonetik tomonini, grammatik tuzilishini shu bola qanday bilib olayotganini qayd qilsa bo'ladi. Odamning tevarak-atrofdagi voqelikni o'zgartirish va yangidan ko'rishida duch kelgan to'sqinlikni va qiyinchilikni yengish uchun uning qanday zo'r iroda bilan sabot-matonat ko'rsatishini ham kuzatish yo'li bilan ko'zdan kechirsak va tekshirsak bo'ladi. Psixik hayot hodisalarini o'rganayotganda psixologning o'z-o'zini kuzatish metodiga ham murojaat qilib turishiga ham to'g'ri keladi.

O'z-o'zini kuzatish

Nomidan ko'rinib turibdiki, tadqiqotchi o'z-o'zini kuzatish bilan o'zidagi psixik hodisalarni tekshiradi. Bu holda tadqiqotchi psixik jarayonlar va holatlarning ichki tomoni - odamning sub'ektiv kechinmalari qanday ro'y bersa, ularni shu holida tasvir etish va aniqlab olishga intiladi. Psixolog o'z tadqiqotlarida tekshirilgan kishilarning o'z-o'zini kuzatib olgan ma'lumotlariga ham asoslanadi. Psixologiya vujudga kela boshlagan V asrdan tortib to bizning eramizgacha va XIX asrning deyarli oxirigacha o'z-o'zini kuzatish metodi yoki introspektiv metod ruhiy hayot hodisalarini bilishning birdan-bir metodi bo'lib keldi desa bo'ladi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'z-o'zini kuzatish metodiga tanqidiy ko'z bilan qaraladigan bo'lib qoldi. Bu metodning bir qancha kamchiliklari borligi ma'lum bo'ldi. O'z-o'zini kuzatishda tadqiqotchi ham tekshiriladigan ob'ektga, u ham tekshiruvchi ob'ektga bo'linib qolishi bu metodning eng muhim kamchiligi ekanligi ko'rsatildi. Holbuki, normal kishilar shaxsining amalda bunday «bo'linib ketishi» mumkin emas. O'z-o'zini kuzatishda psixik hodisalarni (masalan, shodlik yoki qayg'u hissini, tafakkur jarayonini) ham boshdan kechirish, ham shu hodisalarni o'rganish juda qiyin ekanligi, ba'zan esa butunlay mumkin bo'lmasligi ko'rsatib o'tildi. O'z-o'zini kuzatish metodining cheklanganligini ham uning kamchiligi deb bilish kerak. Psixolog o'z-o'zini kuzatish yo'li bilan faqat o'z psixikasini o'rganadi-da, axir. Shunday bo'lgach, odam psixikasi haqidagi fan faqat psixologlarning o'z psixologiyasiga aylanib ketadi. Bunday psixologiya madaniy taraqqiyot jihatidan yuksak darajada turgan, o'z ixtisosiga ko'ra

o'zini-o'zi kuzata oladigan va o'zini-o'zi muhokama qila oladigan kishilar psixikasi haqidagina bilim beradi. Ammo madaniy taraqqiyotning pastroq bosqichida turgan kishilar psixikasi haqidagi ta'limot ham, bolalar psixikasi haqidagi ta'limot ham psixologiyaga qo'shilishi kerak. Madaniy taraqqiyotning pastroq bosqichida turgan kishilar va bolalar esa fan nuqtai nazaridan o'z-o'zini kuzata olmasligi tabiiy. Demak, o'z-o'zini kuzatish yo'li bilan odam psixik taraqqiyotining turli bosqichlari haqida bilim olib bo'lmaydi. Nihoyat, o'z-o'zini kuzatish metodining yana bir katta kamchiligi shuki, bu yo'l bilan olingan ma'lumotlar psixik hayot hodisalarini turli yo'sinda bir tomonlama, sub'ektiv talqin qilishiga olib kelishi mumkin. Masalan, odamning xarakterini tekshirayotgan psixologning o'zi egoist bo'lsa, o'z-o'zini kuzatish natijalaridan, egoizm - har qanday xarakterning muhim belgisidir deb hulosasi chiqarishi mumkin. Dunyoda sahiy, olijanob xarakterli kishilar borligini bunday psixolog faqat o'z-o'zini kuzatish yo'li bilan bila olmaydi. Zohiran ko'rinadigan narsa bu yerda xaqiqat bo'lib tuyulishi, yakka hodisa umumiy hodisa bo'lib tuyulishi mumkin. Holbuki, har qanday ilmiy bilim ob'ektiv va chin bilim bo'lishi kerak.

I.P.Pavlov o'z-o'zini kuzatish yo'li bilan aniqlab olishi mumkin bo'lgan sub'ektiv psixik hodisalar haqida gapirar ekan, bunday deb yozgan edi: «Albatta, bu (sub'ektiv – P.I.) hikmatlar biz uchun birinchi darajali voqe'likdir, ular kundalik hayotimizni yo'lga soladigan, inson jamiyatining taraqqiy etishiga sabab bo'ladi. Ammo sub'ektiv holatlarga qarab yashash boshqayu, ularning mexanizmini chinakamiga ilmiy tahlil qilish boshqa».

O'z-o'zini kuzatish yo'li bilan sub'ektiv ravishda ko'ngildan kechadigan faktlarni aniqlash, tasvirlash mumkin, ammo ularni har tomonlama tushuntirish mumkin emas. Psixik hodisani tushuntirish – uning sababini, nerv-fiziologik asosini topish va odam yashaydigan ijtimoiy sharoit bilan bog'langanligini aniqlash demakdir, bularning hammasi esa o'z-o'zini kuzatish doirasidan tashqaridadir. Fanning vazifasi faktlarni tasvir etishdangina iborat emas, balki asosan shu faktlarni tushuntirish, ularning qonuniyatlarini kashf etishdan iborat. Ob'ektiv metoddan foydalangandagina bunga erishish mumkin. Ammo, o'z-o'zini kuzatish metodining yuqorida aytilgan kamchiliklari bu metodni psixologiyada keraksiz, g'ayri ilmiy metod deb butunlay rad etishga asos bo'lmasligi kerak, albatta. Bu kamchilik va qiyinchiliklarning hammasi ham o'z-o'zini kuzatishda uchrashi mumkin, lekin ular hamisha, o'z-o'zini kuzatishning har qanday bo'lavermaydi. Avvalo, odam o'z-o'zini kuzatish ob'ekti bo'lolmaydi, degan da'voni asossiz deb bilish kerak. Odam ongi taraqqiy etgan bo'lsa, ma'lum psixik jarayonlarni baravariga boshdan kechirishi ham, kuzatishi ham mumkin, odamning hususiyati ham shundan iborat. Odam kuzatish bilangina qolmay, psixik jarayonlarga ta'sir o'tkazishi, turli psixik jarayonlarni yuzaga chiqarishi, o'zgartirishi, kuchaytirishi va to'xtatishi mumkin. Bu har kimga yaxshi ma'lum bo'lgan faktir.

Xar qanday ishda uchraydigan qiyinchiliklar kabi o'z-o'zini kuzatishda uchraydigan qiyinchiliklar ham hamisha bartaraf qilib bo'lmaydigan qiyinchiliklar emas, albatta. Kuchli-

emotsional holatlardagina o'z-o'zini kuzatish mumkin bo'lmay qolishi mumkin. Bundan tashqari, psixik hayot hodisalarini dastlab boshdan kechirish paytidagina o'rganish shart emas, ularni esga tushirib, ko'ngildan kechirish ham mumkin. Ko'pincha hozir boshdan kechayotgan hodisalar emas, balki ilgari hodisalar o'z-o'zini kuzatish ob'ekti bo'ladi. Bo'lib o'tgan hodisalar dastlabki paytdagiday to'la va ravshan gavdalanmaydi, albatta. uzil-kesil xulosa chiqarganda buni hisobga olish shart. O'z-o'zini kuzatish metodi ilmiy asosda tatbiq etmoq uchun mahsus tayyorgarlik kerak, albatta. Ilmiy tadqiqotlardan birontasini ham mahsus tayyorgarliksiz olib borish umuman mumkin emas. Psixologiya o'z-o'zini kuzatish metodidan yagona metod sifatida foydalansa va psixik hayotning sub'ektiv hodisalari ularning tashqi ifodalaridan, ularga asos bo'ladigan nerv-fiziologik jarayonlardan alohida, odamning faoliyatidan: alohida ko'zdan kechiriladigan bo'lsa, faqat shundagina o'z-o'zini kuzatish metodida bir tomonlama xulosa chiqarish va sub'ektivizm ro'y berishi mumkin. Lekin odam psixikasini faqat o'z-o'zini kuzatish metodi bilan o'rganib bo'lmasa, faqat tashqi kuzatish yo'li bilan, ya'ni o'z-o'zini kuzatish ma'lumotlari bilan bog'lanmasligi ham mumkin emas. O'z-o'zini kuzatish metodining ahamiyatini tamomila inkor qilish – odamning yuksak darajadagi bilish qobiliyatiga, ijodiy qobiliyatiga, ongiga ishonmaslik demakdir. Boshqa kishilarni kuzatishning xususiyati shundaki, tadqiqotchi shu kishilar xulq-atvorining tashqi ko'rinishlarini idrok etar ekan, ko'ngildan kechayotgan hislarini bir qadar biladi. Shu sababli psixolog tashqaridan kuzatish yo'li bilan va o'z-o'zini kuzatish ma'lumotlariga tayanib, odamning turli xatti-harakatlarini tasvir etish bilangina kifoyalanib qolmay, balki umuman psixik hayot hodisalari haqida, ularning tashqi va ichki (sub'ektiv) ko'rinishlari haqida xulosalar ham chiqarishi mumkin. Tadqiqotchi psixolog kishilar bilan muomala qilishda turmush tajribasiga va ilmiy tekshirish ishlarida yetarli amaliyotga ega bo'lganida psixik hayotning tashqi ko'rinishlarini kuzatar ekan, psixik jarayonlarning sub'ektiv suratda qanday kechishini ham o'zmi-o'zida ko'pini ocha oladi. Masalan, tafakkurni kuzatish yo'li bilan tekshirganimizda ko'z, yuz muskullaridagi xilma-xil harakatlarni va turqining o'zgarishini qayd qilibgina qolmay, balki, shu bilan birga, shu tafakkur jarayonlari qanday zabt va qanday tezlik bilan ro'y berishini ham bir qadar bila olamiz. Modomiki tafakkur jarayonlari tashqi muhitda o'z ifodasini topar ekan, tafakkurning mazmunini bila olamiz, tafakkur jarayoni qay shaklda ro'y berayotganini, masala qanday kelib chiqayotgani, masalani yechish jarayoni qanday borayotganini ham kuzata olamiz. Kuzatish metodi psixik hodisalarni faqat tasvir etish imkonini berish bilangina cheklanib qolmay, balki shu hodisalarni tushuntirish, ya'ni ularning tevarak-atrofdagi muayyan tarbiyaga, odamning faoliyat xarakteriga, organizmning umumiy ahvoriga va nerv sistemasining ishlash xususiyatlariga bog'liq ekanligini ochib tashlash imkonini ham beradi. Odamzod faoliyatining xar xil turlarida psixikani tekshirish uchun kuzatish metodidan foydalaniladi. Kuzatish yordami bilan bolalar psixikasi ham ularning o'yin, o'qish va mehnat faoliyatida bimalol tekshirib o'rganiladi. Peda-

gog, ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini tekshirib o'rganishda ana shu metoddan foydalanadi.

Kishilarning psixik sifatlari: tashabbuskorligi, ijodiy tafakkur jarayoni, yangilikni bayon qilishi, o'z oldiga qo'ygan maqsadga yetish yo'lida sabr-matонат ko'rsatishlari kuzatish yo'li bilan tekshirib o'rganiladi. Fabrika-zavod sexlarida, kolxoz dalalarida, sotsialistik xo'jalik va madaniyatimizning boshqa sohalarida ishlayotgan sovet kishilarida biz shunday sifatlar namoyon bo'lishini ko'ramiz.

Psixologiyada kuzatish metodi odam hayoti va faoliyatining odatdagi sharoitidagina emas, balki shu bilan birga klinika sharoitida psixikaning kasallik oqibatida o'zgarganligini tekshirishda ham qo'llaniladi. Ayni vaqtda kasallikni tekshirish uchungina emas, shu bilan birga odamning normal ahvolidagi psixik hodisalarni yaxshiroq tushunib olish uchun ham klinik kuzatish ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Eksperiment metodi.

Kuzatish metodining ijobiy tomoni shundaki, bu metod yordami bilan psixik hayot faktlari ularning tabiiy suratda ro'y berishida, borishida va o'zgarishida olib o'rganiladi, ya'ni xaqiqatda, kishilarning kundalik turmushida qanday ro'y bersa, o'shanday holida tekshiriladi. Ammo bu metoddan foydalanganda ba'zi bir ung'aysizlik va qiyinchiliklarni uchratishga to'g'ri keladi, masalan, bu yerda tadqiqotchi psixologning tekshirishi uchun qaysi psixik hodisalarning yuzaga chiqishi kerak bo'lsa, o'sha hodisalar yuzaga chiqqan kishilarni qidirishga yoki biron kishida, ba'zan psixologning o'zida shu hodisalarning yuzaga chiqishini kutib turishga to'g'ri keladi. Eksperiment metodidan foydalanganda bu ung'aysizlik va qiyinchiliklar barham topadi yoki kamayadi. Psixologiyada eksperimentning ikki turi: laboratoriya eksperimenti va tabiiy eksperiment tafovut qilinadi. Laboratoriya eksperimenti. Laboratoriya eksperimentining mohiyati shundaki, tekshiruvchi kishi tekshiriladigan psixik hodisani qachon kerak bo'lsa o'sha vaqtda ataylab vujudga keltiradi. Bunda tekshirilayotgan psixik hodisa tabiiy sharoitda birgalikda sodir bo'ladigan boshqa psixik hodisalar kompleksidan ajratib olinishi mumkin. Tekshiriladigan psixik hodisalar eksperiment davomida o'zgartirilishi, boshqa psixik hodisalar bilan muayyan bir suratda bog'lanishi, kuch, tezlik, hajm va boshqa shu kabi jihatlari

So'rash va suhbat metodi.

So'rash va suhbat metodi psixik hodisalarning asosan ichki, sub'ektiv tomonini tekshirish uchun qo'llaniladi. Bu metodda tadqiqotlar taxminan quyidagicha o'tkaziladi. Tadqiqotchi psixik hayot hodisalarining birontasini, masalan, odamda shodlik hissi sub'ektiv ravishda qanday kechishini, poetik ijodiyot jarayoni qanday borishini, irodaga bog'liq harakatlarda qaror qabul qilish jarayoni qanday ro'y berishini, biron masalani yechganda tafakkur jarayoni qanday

borishini va shunga o'xshash hodisalarni tekshirishni oldindan vazifa qilib qo'yadi, tadqiqotchi suhbat vaqtida tekshiriluvchi kishiga beradigan savollarni oldindan belgilab oladi. Savollar shunday tartib bilan tanlab olinadiki, tekshiriluvchi kishida qaysi kechinmalar va ong jarayonlarini o'rganish kerak bo'lsa, u o'z javoblarida xuddi o'sha kechinmalarni va o'sha ong jarayonlarini oydinlashtirib bersin. Tekshirishning qanday borishiga va tekshiriluvchi kishining individual hususiyatlariga qarab, suhbat vaqtida savollarni o'zgartirish, to'ldirish, boshqacha qilib berish mumkin. Bu vaqtda tadqiqotchi tekshiriluvchi kishini kuzatib, masalan, nutqining hususiyatlarini, mimikasini va shunga o'xshash xislatlarini qayd qilib turadi.

Beriladigan savollarga tekshiriluvchi kishi tegishli javob qaytaradi. Tekshiriladigan hodisaga va savollarning xarakteriga qarab, tekshiriluvchi kishi ichki kechinmalarini mukammal tasvirlab yoki so'z bilan istagancha hisobot berib, javob qaytarishi mumkin, ba'zan tekshiriluvchi kishi faqat «ha» yoki «yo'q» deb javob qaytarishi lozim bo'lib qoladigan tadqiqot davomida tekshiruvchining barcha savollari va tekshiriluvchining barcha javoblari ipidan ignasigacha o'zgartirilmasdan to'la yozib olinadi, protokolda mukammal qayd qilinadi. Iloji bo'lsa, tekshiriluvchi kishining javoblari magnetofon lentasiga yozib olinadi. Tekshiriladigan bir necha kishi bilan, ba'zan esa o'nlarcha va yuzlarcha kishilar bilan muayyan bir temada savol-javob va suhbat qilinadi. Shu tariqa rejadagi dastlabki material sistemaga solinadi, statistik jihatdan ishlab chiqiladi, analiz qilinadi, klassifikatsiyaga solinib, xulosa chiqariladi.

So'rash va suhbat metodi o'z-o'zini kuzatish metodi bilan tashqi kuzatish metodining qo'shilishidan iborat. Bu yerda o'z-o'zini kuzatish shunda namoyon bo'ladiki, tadqiqotchi tekshiriluvchi kishiga savollar berib, uning o'z ichki ongini chuqurroq bilib olishga majbur etadi. Tekshiriluvchi kishi tadqiqotchining topshiriqlariga muvofiq va tadqiqotchining yordami bilan (savollar ustalik bilan berilganda) o'zining ichki holatlarini ochib tashlab, tavsiya etadi va nutqida ifodalaydi, so'zlar bilan javob qaytaradi.

Tashqi kuzatish shunda namoyon bo'ladiki tadqiqotchi ong jarayonlarini o'zi ustida emas, balki boshqa kishilar ustida tekshiradi. Psixik hayot hodisalaridan bittasini tekshirish uchun bir kishi bilan emas, balki bir necha kishi, ba'zan esa ko'plab kishilar so'rash va so'zlash metodi bilan tekshirilgani uchun ob'ektiv xulosa chiqariladi. Tekshiriluvchi kishilardan birontasining so'z bilan qaytargan javoblarini boshqalarining qaytargan javoblariga solishtirib, taqqoslab, tekshirish mumkin.

Suhbat metodining kamchiliklari haqida gapirganda, odatda, bu metoddan foydalanishda tadqiqotchining ta'siri bo'lishi mumkin deb aytadilar. Tadqiqotchining ta'siri bo'lishi mumkinligini, albatta, hisobga olish va tekshirishning boshlaridayoq bunga yo'l qo'ymaslik kerak. Buning uchun savollar shunday berilishi kerakki, ularda qanday bo'lmasin muayyan javobga ishora ham qolmasin. Bundan tashqari, savollar shunday berilishi kerakki, tekshiriluvchi

kishining bir savolga qaytargan javoblarini boshqa savolga qaytarilgan javoblar bilan nazorat qilish mumkin bo'lsin.

Suhbatni o'ziga xos tergovga aylantirib yubormaslik kerak. Suhbat samimiy, bemalol bo'lishi, tekshiriluvchi kishilarning psixik holatiga zo'r kelmasligi kerak. Suhbat odam psixik hayotining bevosita kuzatish va eksperimentda aniqlab bo'lmaydigan protsess va hollari haqida ma'lumot olishga yordam beradigan birdan-bir metoddir, deyish mumkin. Masalan, kosmosga parvoz qilish vaqtida odamning psixik faoliyat hususiyatlari haqida bilim olmoq uchun tadqiqotchi kosmonavtlarning o'zi bilan suhbat qilishi kerak. Suhbat metodi shaxsning individual hususiyatlarini (e'tiqodlari, havaslari, jamoaga munosabati, o'z vazifalarini tushunish) tekshirishda, shaxsning hayoti va faoliyatidagi mahsus voqealar, qahramonlik, ijodiy maqom va shunga o'xshashlarni tekshirishda qo'llaniladi. Bu metod o'qitish va tarbiyalashning psixik asoslarini tekshirishda, masalan, bolalarning kitobxonlikka havasini, ayrim darslarga munosabatini tekshirishda, o'quvchilarning uyga berilgan topshiriqlarni bajarishda xotirada qoldirish usullarini, ayrim o'quvchilarning darslarni sust o'zlashtirish sabablarini aniqlashda qo'llaniladi.

Hozir suhbat metodi psixologiyada juda keng qo'llaniladi, jumladan pedagogik psixologiya, mehnat psixologiyasi, ijodiyot psixologiyasi, kosmik psixologiyada suhbat metodidan foydalaniladi.

Biografiya metodi. Odam psixikasini tekshirish uchun ayrim kishilarning hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlar, ayniqsa ularning o'zlari bergan ma'lumotlar (avtobiografiya, kundalik daftarlar, memuarlar, xatlar), shuningdek, boshqa kishilar yozib olgan biografiya ma'lumotlari (biografiyalar, esdaliklar, xatlar, xarakteristikalar va shunga o'xshashlar) katta ahamiyatga egadir. Bu ma'lumotlar psixik faoliyat: namoyon bo'lishining kuzatish va eksperiment yo'li bilan tekshirib bo'lmaydigan turlarini, masalan, ijodiy xayol – poeziya, muzika, texnika va boshqa shu kabi sohalaridagi ijodiyot yuksak jarayonlarini, ilmiy kashfiyotlarda namoyon bo'ladigan tafakkur faoliyati yuksak jarayonlarini, kuchli iroda va ma'naviy yuksak sifatlarning alohida ifodasi bo'lgan qahramonlikni, shuningdek, geniallik, talantlilik va zo'r qobiliyat kabi xislatlarni ochishga yordam beradi. Odam ongi namoyon bo'lishining ana shunday turlari to'g'risida eng atoqli kishilar bayon qilgan fikrlariga qarab, yoki o'sha shaxslarga yaqin yurgan kishilarning guvohliklariga qarab ko'pgina fikr yuritish mumkin. Bundan tashqari, biografiyaga doir ma'lumotlar odamning individual kamolotida tarbiya, shuningdek, kishining faoliyati va o'zi ustida ishlashi qanday o'rin tutgani va qanday ahamiyat kasb etganini ham bilishga yordam beradi. Faoliyat samaralarini tekshirish. Odamning faoliyat sohalarini, uning mehnat natijalarini tekshirish psixikani bilish uchun muhim vositadir. Odamning kuch va qobiliyatlari u yaratadigan narsalarda gavdalanadi. Odamzod faoliyatining samaralarini

tekshirganimizda biz, shu samaralarni barpo etgan kishilar qanday qilib fikr qilganliklarini, his qilganliklarini, nimaga intilganliklarini, ularning irodasi naqadar kuchli bo'lganliklarini, ularda qanday mahorat va malakalar bo'lganligini bilib olamiz. Masalan, biror uy-joyga diqqat bilan qarar ekanmiz, shu uyni qurgan kishilarning konstruksiya-texnika qobiliyatlari qanday bo'lgani, ularning estetik didi, ma'naviy sifatlari, halolligi, mas'uliyat sezishi va shunga o'xshashlar haqida fikr yurita olamiz. Ayrim kishilarning, ma'lum bir davr kishilarining, muayyan yoshdagi kishilarning psixikasini ularning faoliyat samaralariga qarab bilsa bo'ladi. Kishilarning mehnat va ijodiyot samaralari ularning psixikasini bilish uchun juda muhim manbalardir. Bu metod turli yoshdagi bolalar psixikasining xususiyatlarini tekshirishda muvaffaqiyat bilan qo'llanilmoqda. Masalan, bolalarning o'zi chizgan rasmlaridan, yasagan qo'g'irchoqlaridan ularning nazar doirasi naqadar kengligini, tasavvurlarining xarakterini va hajmini, tafakkur xususiyatlarini, qiziqish-havaslarini va shunga - o'xshashlarni bilish mumkin. O'quvchilarning bajargan ishlarini tahlil qilish pedagogning darsdagi materialni o'quvchilarning o'zlashtirish va zarur malaka hosil qilish xususiyatlarini, shuningdek bolalarning qobiliyat va havaslarini tekshirib bilib olishiga yordam beradi. Kishilar psixikasini bilib olish uchun badiiy adabiyotning ham katta ahamiyati bor.

Ayrim metodlarning ahamiyati

Psixologiyaning asosiy metodlarini qisqacha ta'riflab berdik. Endi, chinakamiga ilmiy psixologiya qaysi metoddan foydalanishi kerak, yuqorida ko'rsatilgan metodlardan qaysi biri yaxshi, degan savol tug'ilishi tabiiy.

Bu savolga quyidagicha javob qaytarish kerak: psixologiya biron bir metoddan foydalanish bilan kifoyalana olmaydi. Faqat bir metodning ma'lumotlariga asoslanib, chinakamiga ilmiy psixologiya sistemasini tuzib bo'lmaydi. Psixik hayot hodisalari boy tabiatiga ko'ra formalarining xilma-xilligi va sifat ko'rinishlarining turli-tumanligiga bilan farq qiladi. Psixikaning bu xususiyati borligidan uni o'rganishda turli-tuman metodlarni tatbiq etish talab qilinadi. Bu yerda biron juz'iy metodni tanlab olish har gal qaysi psixik hodisalarning tekshirilishiga, ongning qaysi funksiyalari tadqiq qilinishiga qarab har gal alohida hal etiladi. Masalan, sezgilarni tekshirishda eksperiment metodidan foydalanish ma'qul. Ijodiy xayol jarayonlarini tekshirishda tadqiqotchi so'rash va suhbat metodidan ko'proq foydalanadi, shuningdek, ijodkor shaxslarning asarlarini analiz qilish metodidan va biografiya metodidan ham foydalanadi. Ayni vaqtda har bir psixik hodisani tekshirganda biron bir metod bilan kifoyalanish yaramaydi. Psixik hayot hodisalari har tomonlama tekshirilishi lozim. Psixik hayot hodisalarini har tomonlama tekshirish uchun esa turli metodlarni tatbiq etish talab qilinadi. Metodlardan biri faqat asosiy metod bo'lishi mumkin. Bir metod bilan olingan ma'lumotlar boshqa metodlar yordamida olingan ma'lumotlar bilan to'ldirilishi, nazorat qilinishi va oydinlashtirilishi lozim. Masalan, tafakkur jarayonlarini o'rganishda tadqiqotchi o'z-o'zini kuzatish metodidan ham, tashqi kuzatish metodidan ham,

eksperimentning turli-tuman xillaridan ham foydalanadi. O'qitish jarayonida o'quvchilarning individual xususiyatlarini o'rganishda pedagog-psixolog ham turli metodlardan oddiy tashqi kuzatish metodidan, so'rash va suhbat metodidan, eksperimentning oddiy turlaridan va shu kabilardan foydalanadi. Psixik hayot hodisalari yuqorida aytilgan hamma metodlar yordamida aniqlanadi. Bu hodisalar tasvir etiladi, klassifikatsiyaga solinadi, analiz qilinadi, ulardan yakunlar chiqariladi. Shu metodlar yordamida ayrim psixik hodisalar o'rtasidagi bog'lanish topiladi, shu hodisalarning ro'y berish va boshlanish negizidagi qonuniyatlar ochiladi. Ammo psixikani ilmiy asosda o'rganish shu bilan kifoyalanmasligi kerak. Psixik hayot hodisalari dialektik materializm tamoyillari asosida, jumladan psixikaning mohiyati va psixik hodisalar bilan fiziologik hodisalarning o'zaro munosabati haqidagi ta'limot nuqtai nazaridan tushuntirib berilgandagina, bu hodisalar va ularning qonuniyatlari haqidagi bilimlarimiz bekam-ko'st ilmiy bo'limlar bo'ladi.

Asosiy metodlar	Asosiy metodlarning variantlari
Kuzatish metodi	Tashqi (ob'ektiv kuzatish) ichki (sub'ektiv, o'zini-o'zi kuzatish) erkin kuzatuv, standartlashtirilgan guruh ichida kuzatish, guruh tashqarisida kuzatish
So'roq metodlari	Og'zaki, yozma, erkin (suhbat)
Test metodi	Test-so'rov, Test-topshiriq Proektiv test, sotsiometrik test
Eksperiment	Tabiiy, laboratoriya
Modellashtirish	Matematik modellashtirish mantiqiy modellashtirish Texnik modellashtirish kiberketik modellashtirish

XULOSA.

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki psixologiya fani O'zbekistonda 20-asrning ikkinchi yarmidan boshlab turli jabhalarda rivojlandi. Psixologiyaning turli sohalari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. O'zbekiston Respublikasi psixologlar assotsiatsiyasi tashkil topdi. Hali psixologiya fanining turli sohalarida yoritilmagan, yetarli ilmiy jihatdan o'rganilmagan muammolar juda ko'p. Ularni o'rganish respublikamiz psixologlarining asosiy vazifalaridir.

Bugungi kunda ta'limda o'quvchilarga psixologiya fanlarining zamonaviy yutuqlarini aks ettiradigan mavzular kiritilishi va, takomillashtirilgan bo'lishi zarurdir. Lekin hamon psixologiya darsligi talabalarga fanni qo'lga kiritgan yutiqlarinigina tushuntirishga mo'ljallangan xolda qolmoqda. Bunga sabab darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda mualliflarni, psixologiya o'qituvchilarini fikr va muloxazalarini yetarli o'rganmasliklari ilmiy xodimlar bilan yaqindan bog'lanmay ish tutishlari bo'lsa kerak.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda psixologik bilimlarga ega bo'lish barcha soha mutaxassislariga zaruriy xolat bo'lib qolmoqda. Chunki inson ruhiyatiga xos xususiyatlaridagi barcha turdagi o'zgarishlar uning kasbiy faoliyatida ham, xayot tarzida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Buni biz psixologiyaning determinizm prinsipini tavsiflash asosida aniq bilib olishimiz mumkin bo'ldi.

Shu nuqtai nazardan umumiy psixologiyaning oldida turgan eng dolzarb muammolaridan biri jadal rivojlanib borayotgan hozirgi davr faol ishtirokchisi bo'lgan shaxsning psixikasi haqida to'liq bilimlarni berish vazifasi ta'lim sohasiga yuklatilishi, bu soha mutaxassislarining kasbiy faolligini oshirish, o'qitishni ilg'or usullardan foydalangan holda o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishdan iboratdir. Buning uchun psixologik bilim berishda quyidagi jarayonlarga etiborni berish va ularning bilim va malakalarini oshirish ko'zda tutilishi kerak. Ya'ni:

- O'zbek xalqining etnopsixologik hususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'lishi;-
- Ta'lim tizimidagi psixologik xizmat, uning maqsad va vazifalarini bilishi;- psixologik tadqiqot metodlarini bilish va o'z faoliyati davomida ulardan foydalana olish malakasiga ega bo'lishi;-
- pedagogik hamkorlik psixologiyasini bilish va uni amaliyotga qo'llash malakasiga ega bo'lishi;- psixologiyaning sahaları, uning nazariy va amaliy masalalari haqida tasavvurga ega bo'lishi;-
- pedagogik qobiliyat turlarini bilish va egallashi;- psixologik pedagogik tashxis va uning ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishdagi o'rni va rolini bilishi, ayrim psixologik tashxis metodlaridan foydalanish malakasiga ega bo'lishi;

- yosh davrlar psixologiyasi, bola ruhiy rivojlanishining yosh xususiyatlari, bola shaxsi shakillanishida ijtimoiy va tabiiy omillarning roli haqida zamonaviy ta'limotlardan xabardor bo'lishi;
- o'quvchilarni tarbiyalashda "Oila, mahalla, maktab hamkorligi" Konsepsiyasining asosiy g'oyalarini bilishi. Ota-onalar bilan ishlashda oiladagi shaxslararo munosabatlar va ularning bola shaxsini shakillanishiga ta'siri haqidagi psixologik bilimlardan foydalana bilishi;
- ta'lim-tarbiya jarayoni psixologiyasi (pedagogik psixologiya) muammolari, izlanishlar, bu sohadagi yangilik va yutuqlar haqida ma'lumotga ega bo'lishi;
- pedagogik jamoa va o'quvchi-tarbiyalanuvchilar guruhlarida shaxslararo munosabatlar xususiyatlari haqida hamda jamoadagi psixologik iqlim va uni yaxshilash yo'llari haqida bilimlarga ega bo'lishi kerak

TAVSIYA

Olib borilgan nazariy va amaliy taxlilar asosida barcha soha mutaxassislariga quyidagi tavsiyalarni bermoqchimiz

- Umumiy psixologiya tarmoqlari bo'yicha barcha bilimlarni egallash uchun o'z kasbiy yo'nalishiga doir psixologik kategoriyalarni to'la o'rganish maqsadga muvofiq.
- Psixologiya sohasi mutahasislari bugungi kun talabalaridan kelib chiqib ilmiy manbaalarni tayyorlash va uni ommalashtirish ishlariga e'tiborni qaratish zarur.
- Ta'limda psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirish. Barcha sohada psixologik xizmat turlari bo'yicha faoliyatni tashkil etish.
- Aholini hayotiy psixologik bilimlarini ilmiy asoslash uchun tashviqot –targ'ibot ishlarini tashkil etish va bunga talbalarni ham jalb etish.
- Oliy o'quv yurti ta'lim tizimida psixologiya fanlarini o'qitishda amaliy darslarni rivojlantirish va talabalarda amaliy kasbiy ko'nikmalarini shakllantirish
- Psixologiya fanlari bo'yicha milliy tilda o'quv uslubiy , o'quv qo'llanmalar va darsliklarni tayyorlash.
- Psixologiya fanlaridan darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish va mazmunini sifatini oshirish
- Darsliklar psixologiya fanlari ko'lga kiritgan yutuqlar olib borilgan tadqiqot natijalari, xulosa va fikrlar, kashfiyotlar kabi mavzularni o'z ichiga olmog'i kerak.
- O'quv predmeti mazmunini faqat fanning ayni davrdagi qo'lga kiritgan yutuq va xulosalari yig'indisi sifatida berilishi goho o'quvchilarni ayni fanni qo'lga kiritgan yutuqlari unchalik to'g'ri emasligi o'qituvchining bilimlari ham unchalik to'la emas ekanligi mulohazalarga borib qolishiga sabab bo'lishi mumkin.
- Psixologiya ta'limida o'quvchilarni tayyor bilimlari o'rgatmasdan, balki mavzuga oid tushunchalarni fan kundaliklari, vasitalari orqali qo'lga kiritish mazkur bilimlar hozirda nisbiy ekanligi keyinchalik ular yana rivojlanib takomillashib borishi to'g'risida o'quvchilarda tasavvurlar xosil qilish zarur

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Karimov I. A. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. «Turkiston», 2002 yil 31 avgust.
2. Karimov. A.I. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining
3. poydevori. Barkamol avlod orzusi. Toshkent. Sharq. 1999.
4. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni
5. demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T.: «O'zbekiston», 2005.
6. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. 1992.
7. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». 1997.
8. Ayzenk M., Psixologiya dlya nachinayuyshyx. – SPb.: Piter, 2004. –235 s.
9. Andreeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. Uchebnik. M.: Aspekt Press,
10. Drujinina V. Psixologiya. – SPb.: Piter, 2004. – 650 s.
11. Nemov R.S. Psixologiya: Ucheb. dlya stud. vo'ssh. ped. ucheb. zavedeniy: V 3 kn. – M., 2003.– 437 s.
12. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002. 1-2 kitob.
13. G'oziev E.G., Toshimov R. Menejment psixologiyasi. T-2001
14. G'oziev E.G. Muomala psixologiyasi. T-2001.
15. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. T.: Universitet, 1999.
16. Karimova V.A., Akramova F.A. Psixologiya. – T.: TGEU, 2006. –156 s.
17. Psixologiya: Uchebnik dlya pedagogicheskix vuzov / Pod. Red. B.A. Sosnovskogo. – M.: Yurayt-Izdat, 2005. – 660 s.
18. Karimova V., Akramova F. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. – T., 2002.
19. Karimova V. M. Psixologiya. O'quv qo'llanma. – T., 2002.
20. Karimova V.M., Sunnatova R.I. «Mustaqil fikrlash» o'quv
21. qo'llanmasi bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish uslubiyoti. T.: Sharq, 2000.
22. Mayers D. Sotsialnaya psixologiya perev. s angl.-SPb.: «Piter»,1999.
23. Metody effektivnogo obucheniya vzroslyx. Uchebno-metodicheskoe
24. posobie. (Avtorskiy kollektiv) Moskva - Berlin, 1998.
25. Prikladnaya sotsialnaya psixologiya. /Pod.red. A. Suxova i A.Dergacha.
26. M, 1998. 267
27. 17.Sushkov I.R. Psixologiya vzaimootnosheniy. M.: Akademicheskiiy
28. Proekt, 1999.

29. Chaldini R. Psixologiya vliyaniya. SPb.: «Piter», 2000.
30. Psixologiya: Uchebn.T-2. «Prospekt». Moskva - 2004.
31. Psixologiya i pedagogika. Pod redaksiyey A.A.Radugina. Izd. «Sentr»
32. 2003.
33. Gamilton. Ya.S. Chto takoe psixologiya. «Piter», 2002.
34. Ananov B.G. Chelovek kak predmet poznaniya. «Piter», 2001.
35. Druzhinina V. Psixologiya . Uchebnik. «Piter», 2003.
24. Burlachuk F. Psixodiagnostika. «Piter», 2002.
25. Ayzenk M. Psixologiya dlya nachinayuyshix. «Piter», 2000.
26. Ayzenk G. Klassicheskie IQ testy. Moskva. Izd-vo Eksmo, 2004.
36. G'oziev E. Intellekt psixologiyasi. –T., 1996.
37. G'oziev E. Tafakkur psixologiyasi. –T., 1990.
38. G'oziev E. Xotira psixologiyasi. –T., 1994.
39. G'oziev E. Psixologiya. –T.: «O'qituvchi», 1994.
40. Bolotova A.K, Makarova I.V. Prikladnaya psixologiya: Uchebnik dlya vuzov. - M.Aspekt Press, 2002.
41. Vedenskaya L.V, Pavlova L.A. Delovaya ritorika: uchebnoe posobie dlya vuzov. M.:IKS «Mart», 2004.
42. Vospitay svoego lidera. Kak naxodit, razvivat i uderjivat v organizatsii talantlivyx rukovoditeley. - Per. s angl. M.: Izdatelskiy dom «Vilyams», 2002.
43. Lojkin G.V. Povyakel N.I. Prakticheskaya psixologiya v sistemax «chelovek texnika»: Ucheb.posobie.- K.: MAUP, 2003.
44. Nemov R.S. Prakticheskaya psixologiya. Poznanie sebya: Vliyanie na lyudey: Posobie dlya uch-sya. - M: Gumanit. Izd.Sentr VLADOS, 2003. 268
45. Spravochnik po resheniyu krossvordov i skanvordov . Rostov na Donu: Vladis, 2002.
46. Dyui Dj. Psixologiya i pedagogika myshleniya. M., Progress, 1998.
47. Karnegi D. Kak zavoevat druzey i okazyvat na nix vliyanie. - M., Progress, 1990.
48. Hayitov O.E., Lutfullaeva N.X. Psixodiagnostika va amaliy psixologiya. - T.
- 45.Umumiy psixologiya. A.V.Petrovskiy tahriri ostida. – T.: O'qituvchi», 1992.
46. Oila psixologiyasi. Prof. /Shoumarov tahr. ostida. - T.: Sharq, 2001.
- 47.G'oziev E. Psixologiya.T. 1994 y.
48. G'oziev E. Oliy maktab psixologiyasi . 1997 y.
- 49 Umumiy psixologiya. A.V. Petrovskiy taxririda. T. 1992y.

50. Umumiy psixologiyadan xrestomatiya. 1991y.

51 Platonov. K.K. Kizikarli psixologiya. 1998y.

INTERNET TARMOG‘I BO‘YICHA VEB-SAYTLAR RO‘YXATI:

1. www.expert.psychology.ru

2. www.psychology.all.ru

3. www.psychology.net.ru


4. www.psy.piter.com.

5. www.pedagog.uz,


6. www.google.uz

ILOVALAR.

Psixologiya fanining dolzarb vazifalari, predmeti. yangicha tafakkur va milliy mafkura shakllanishi sharoitida psixologik bilimlarning tutgan o'rnini. Psixikaning namoyon bo'lish shakllari



Shaxs yoʻnalganligi, dunyoqarash va eʼtiqodni oʻzgartirish omillari




Shaxsning ijtimoiy borliqni bilishi. bilish mezonlari va uning adekvatligi. Idrok, xotira va diqqat jarayonlarini boshqarish.

Shaxsning bilish jarayonlari



Идрок ва uning qonuniyatlari.



ХОТИРА

- бу тажрибамизга алоқадор ҳар қандай маълумотни эслаб қолиш, эсда сақлаш, эсга тушириш ва унутиш билан боғлиқ мураккаб жараёндир. Хотира ҳар қандай тажрибамизга алоқадор маълумотларнинг онгимиздаги аксидир.

Хотира
мустаҳкам
лиги
омиллари:

- эсда сақлаб қолиш билан боғлиқ ҳаракатларнинг якунланганлик даражасига;
- шахснинг ўзи шуғулланаётган ишга нечоғлиқ қизиқиш билдираётганлиги ва шу ишга мойиллигига;
- шахснинг бевосита фаолият мазмуни ва аҳамиятига муносабатининг қандайлигига;
- шахснинг айна пайтдаги кайфиятига;
- иродавий кучи ва интилишларига.

Хотира
самарадорлигига
кўра шахс тоифалари

- материални тезда эслаб қоладиганлар;
- материални узоқ вақт эсда сақлайдиганлар;
- истаган пайтда осонлик билан эсга туширадиганлар

Кўрғазмали образли;
Мантикий;
Эмоционал;
Феноминал


Хотира турлари

Хотирани
мустаҳкамлашнинг
саккизта қонуни


1. Англоланганлик қонуни;
2. Қизиқиш қонуни;
3. Илгариги билимлар қонуни;
4. Эслаб қолишга тайёрлик қонуни;
5. Ассоциациялар қонуни;
6. Бирин-кетинлик қонуни;
7. Кучли таассуротлар қонуни;
8. Тормозланиш қонуни.

Tafakkur va uning turlari


Tafakkur va mustaqil fikrlash shart-sharoitlari. Ijodiy va mantiqiy fikrlash - sog'lom ma'naviyat va e'tiqodni tarbiyalashning omili sifatida.




Tafakkur shakllari va operatsiyalari




Individual-tipologik xususiyatlar klassifikatsiyasi



Qobiliyat va uning xususiyatlari



Temperament va uning turlari.



Характер va uning tizimi.

Характер - шахсдаги шундай психологик, субъектив муносабатлар мажмуи, улар унинг борлика, одамларга, предметли фаолиятга ҳамда ўз- ўзига муносабатини ифодалайди

Характернинг намоён бўлиш тизими:


1. *Меҳнатдаги хусусиятлар* - меҳнатсеварлик, меҳнаткашлик, ташаббускорлик, ишга лаёқат, ишга қобиллик, масъулият, дангасалик, қўнимсизлик

2. *Инсонларга муносабатлардаги сифатлар* - одобилик, меҳрибонлик, такт, жонсараклик, дилгирлик, альтруизм, мулоқотга киришувчанлик, ғамхурлик, раҳм-шафқат

3. *Ўз-ўзига муносабатдаги сифатлар* - камтарлик, камсуқумлилик, мағрурлик, ўзига бино қўйиш, ўз-ўзини танқид, ибo, шарму - ҳаё, манмансираш

4. *Нарсалар ва ҳодисаларга муносабатларда намоён бўладиган хусусиятлар* - тартиблилик, оқиллик, саронжом-саришталик, қўли очиклик, зикналик, тежамкорлик, покизалик

**ШАХС «МЕН» ИНИНГ
РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ**



- 1 - босқич (ишонч - ишончсизлик) - бу ҳаётнинг 1 - йили.**
- 2 - босқич (мустақиллик ва қатъиятсизлик) - 2 - 3 ёшлар.**
- 3 - босқич (тадбиркорлик ва гуноҳ хисси) - 4 - 5 ёшлар.**
- 4 - босқич (чаққонлик ва етишмовчилик) - 6 - 11 ёшлар.**
- 5 - босқич (шахс идентификацияси ва ролларнинг чалкашлиги) - 12 - 18 ёшлар.**
- 6 - босқич (яқинлик ва ёлғизлик) - етукликнинг бошланиши.**
- 7 - босқич (умуминсонийлик ва ўзига берилиш) - етуклик даври.**
- 8 - босқич (яхлитлик ва ишончсизлик) - кексалик.**